



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XIMIYA – BIOLOGIYA FAKULTETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

“GEOLOGIYA VA MINERALOGIYA ”
O'QUV FANI BO'YICHA

ISHCHI O'QUV USLUBIY MAJMUA

(yo'nalish : 5440500 - geografiya)

« Ma'qullayman »
Ximiya - biologiya fakulteti dekani
____ dots. B.Davronov
2009 yil " " _____

Tuzuvchi: dots.A.Mamatov

Taqrizchi: o'qit.B.Murtazayev

Ishchi o'quv uslubiy majmua geografiya kafedrasining majlisida muhokama qilinib, fakultet va universitet ilmiy - uslubiy kengashlarida tasdiqlashga taqdim etildi.
(2009 yil " 28 " avgust, " 1 " - sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: _____ dots. L. Erdonov.

Ishchi o'quv - uslubiy majmua ximiya - biologiya fakulteti uslubiy kengashida tasdiqlandi.
(2009 yil " 30 " avgust, " 1 " - sonli bayonnoma)

Fakultet ilmiy - uslubiy
kengash raisi: _____ dots. I.Haitov

O'QUV - USLUBIY MAJMUA

1. Ishchi o'quv dastur	2-9 bet
2. Kalendar tematik reja	10-12 bet
3. Reyting ishlanmasi va baholash mezonlari	13-15 bet
4. Ma'ruzalar matni	16-70 bet
5. Amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishlari ishlanmalari va uslubiy ko'rsatmalari	71-83 bet
6. Talabalar mustaqil ishi	84 bet
7. Yozma ish savollari	85-102 bet
8. Test savollari	103-122 bet

Ishchi o'quv dasturining tuzilmasi

I. DTS tomonidan o'quv faniga quyiladigan talablar

O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'limning DTS tizimi Oliy ta'lim 5140500-“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” yo'nalishiga oid bakalavrning tayyorgarlik darajasi va o'zlashtiradigan bilimlar mazmuniga zaruriy talablar O'zMU tomonidan ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi 54-sonli 2002 yil 21 fevral buyrug'i bilan tasdiqlangan va joriy etilgan hujjatlarga asosan ushbu ishchi o'quv kompleksi tuzildi.

O'zbekiston davlat standati – oliy ta'lim 5140400 – “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” bakalavr yo'nalishi 3-6-3 Umumkasbiy o'quv fanlar bo'limida “Geologiya asoslari” – Yer haqida umumiy ma'lumotlar, Yerning kosmik jismligi, Yer ichki qobiqlari, yer po'sti, uning kimyoviy tarkib, tog' jinslari, geologik jarayonlarni bilish zarurligi ko'rsatilgan. Yer tashqi dinamik va ichki dinamik jarayonlar, yer po'sti strukturasi, tog' jinslari qatlari, qatlarning yotish tektonik jarayonlar, yerning va yer po'stining geologik rivojlanish tarixi. “Umumiy geomorfologiya”, relef, relef hosil qiluvchi omillar, relefning endogen va ekzogen jarayonlar bilan bog'liqligi, geologik va geomorfologik tadqiqot olib borishni bilish talablari qo'yilgan.

II. Tasdiqlangan na'munaviy o'quv dasturi

Kirish

Ushbu dastur geologiya kursining tasnifi, ularni tuzilishi va tadqiqot metodlari, fan tarixi va rivojining tendentsiyasi, istiqboli, foydali qazilmalarining halq xo'jaligidagi ahamiyatlari bayon etilgan.

O'quv fanning maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan **maqsadi** – talabalarga geologiya fanini rivojlanishi, endogen va ekzogen jarayonlar hamda tarixiy geologiya asoslari haqida bilimlar berishdir.

Fanning **vazifalari** – quyidagilardan iborat: Fanning maqsadi, vazifalari, rivojlanish tarixi hamda tadqiqot usullari haqida talabalarga bilimlar berish. Endogen jarayonlar va ularning sodir bo'lish qonuniyatlarini yoritib berish: magmatizm, tektonik jarayonlar, seymik jarayonlar. Metamorfizm; Ekzogen jarayonlar va ularning geologik faoliyati haqida talabalarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. Geoxronologiya jadval, yerni turli geologik davrlarda rivojlanish tarixining asosiy xususiyatlarini tushuntirib berish.

Fan bo'yicha talablarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Geologiya” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

-talabalar geologiya kursini o'rganish jarayonida quyidagilarni bilishlari zarur; Geologiya fanining maqsad va vazifalarini, rivojlanish tarixini o'rganish. Magmatizm va uning turlari, tektonik xarakterlar va ularning turlarini, seymik jarayonlarni o'rganish. Yer po'stining asosiy tuzilmalarini (platforma va geosinklinallarni), litosfera plitalarini o'rgani. Metamorfik jarayonlarni metamorfik tog' jinslarni hosil bo'lish jarayonlarini aniqlash. Ekzogen jarayonlar va ularning geologik faoliyati hamda ularning natijalarini bilish. Asosiy geologik davrlarni va mazkur davrlarda yer yuzasining rivojlanish tarixi. Foydali qazilmalarning turlarini va ularning tarqalish qonuniyatlarini **bilishi kerak**;

-talablar tog' jinslarini kelib chiqishiga ko'ra turlarni, nomlarini, foydali qazilmalarini aniqlay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak;

-talaba dalada tog' jinslarini turlarini, yotish holatini, nurash darajasini, foydali qazilmalarini nomini, ularni xaritaga tushuntirish **malakasiga** ega bo'lmog'i kerak.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Geologiya” fanni asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 1 va 2 semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematika va tabiiy (oliy matematika asoslari, inforatika va axborot texnologiyalari, statistika, fizika), umum kasbiy (umumiy yer bilimi, tuproqshunoslik asoslari, topografiya va kartografiya asoslari, tabiiy geografiya va boshqa) va ixtisoslik (toponimika, o'lkashunoslik va boshqa) fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Fanning ta'limdagi o'rni

Geologiya fani asosi y ixtisoslik fani hisoblanib, u talabalarga yerning ichki tuzilishi, tog' jinslari, O'zbekiston qazilma boyliklari zahiralari haqida bilimlar beradi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot pedagogik texnologiyalar

Talabalarning Geologiya fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur kurs bo'yicha mavzularida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan;

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Kirish

Kristall panjaralar, kristallografik shakllar

Minerallar va tog' jinslari xaqida tushuncha, konlar va foydali qazilmalar haqida tushuncha. Minerallar tasnifi. Silikatlar, sulfidlar, karbonatlar va boshqalar.

Endogen geologik jarayonlar

Magmatizm. Intruziv va effuziv magmatizmi xaqida. Magmatik jarayonlar bilan bog'liq qazilma boyliklarning hosil bo'lishi xaqida X.M. Abdullaevning genetik qonuniyatlari.

Tektonik jarayonlar

Tektonik harakatlarning xillari (tebranma, yorma, seysmik jarayonlar).

Yerning asosiy geostrukturalari

Geosinklinal va platforma viloyatlari va ularning unsurlari. Litosfera tektonik plitalari.

Metamorfik jarayonlar

Metamorfik tog' jinslari tasnifi, foydali qazilmalari va javohirlari haqida.

Ekzogen (nurash) jarayoni

Ekzogen (nurash) jarayoni, tog' jinslari va foydali qazilma boyliklari tasnifi. Okean va dengizlarning geologik faoliyati. Cho'kindi tog' jinslari.

Daryolar va Yer osti suvlarining geologik faoliyati. Ulardan hosil bo'lgan tog' jinslari va foydali qazilmalar. Yer usti relefining o'zgarishi. Shamollarning, muzlik, ko'l va botqoqliklarning geologik faoliyati. Tog' jinslari, foydali qazilmalar. Yer usti relefining o'zgarishi. Iqtisodiy va ekologik geologiya haqida. Foydali qazilma boyliklarning sanoatda ishlatilishiga ko'ra tasnifi. Metallar va nometallar qazilma boyliklar, qurilish materiallar, javohirlar, indusriya va optik ashyolar, A, V, S, S2 zahiralari.

O'zbekiston qazilma boyliklar zahiralari

O'zbekiston qazilma boyliklari zahiralari (neft, gaz, oltin, uran va x.k.) kelajak rejalari. Qazilma boyliklari qazib olish (yopiq va ochiq hollarda) usullari.

Peleontologiya asoslari

Paleontologiya fani xaqida asosiy tushunchalar: Paleozoologiya, paleobotanika haqida, toshqotgan hayvonot va o'simliklar dunyosining saqlanish holatlari va ularning geologik hamda paleogeografiya sohalaridagi xizmati. Fatsiya va formatsiyalar haqida tushuncha.

Stratigrafiya

Stratigrafiya, geoxronologiya haqida tushunchalar. Yerning geologik rivojlanish tarixi. Tokembriy geologik davrlarning rivojlanish tarixi. Paleozoy geologik davri tarixi. Mezazoy erasi: trias, yura va bo'r geologik davrlari tarixi: tog' burmalanish tarixi, qazilma boyliklari, fauna va floralari. Kaynazoy erasi: Paleogen, neogen va to'rtlamchi (antropogen) davrlari tarixi. Muzlik va iqlim sharoitlarining o'zgarib turishi haqida. To'rtlamchi davr (O'zbekiston va Toshkent shahri misolida).

Laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Kristallografiya: simmetriya elementlari. Kristallografik shakllari, singoniyalari. Minerallarning fizik-dagnostik xususiyatlari: minerallarning rangi, chizig'ining rangi, qattiqligi, shaffofligi, yaltiroqligi, ta'mi, magnitlili. Qovushqoqligi va h.k. laboratoriya sharoitida minerallarni aniqlash, (diagnostika) usullari: Sof- tug'ma minerallar. Nometall va metall minerallarni laboratoriya sharoitida aniqlash. Sulfidlar, sulfatlar sinfiga kiruvchi minerallarni aniqlash, o'quv qo'llanmadagi jadvallardan foydalanish uslubi. Galoid, oksid-gidrooksid, karbonat, volframat va fosfatlar sinfiga kiruvchi minerallarni aniqlash. Jadvallardan foydalanish. Silikatlar sinfiga kiruvchi minerallarni aniqlash. Magmatik, metamorfik va cho'kindi tog' jinslarining tekstura va strukturalardan foydalanish usullari. Uch xil tog' jinslarining o'quv qo'llanmalarda keltirilgan jadvallar yordamida laboratoriya ishi sharoitida mustaqil aniqlash. Petrografiya haqida tushuncha. Tog' jinslari namunalaridan tayyorlangan shliflar bilan tanishish va ularni mikroskop yordamida ko'rish. Gorizont bo'ylama va burchak ostida qiyalab joylashgan tog' jinslari bo'ylab geologik kesimlar olish usullari bilan tanishtirish. "Tabiiyot" va "Geologiya" muzeylardagi mavzularga tegishli bo'lgan eksponatlar bilan tanishish.

Paleontologiya. Toshqotgan fauna va floralar bilan tanishish, ularni farqlash, rasmlarni chizish: fauna va floralarning saqlanish holatlari bilan tanishtirish. Fatsiya, Fvtsial tahlil qilish usullari bilan tanishtirish. Yerning viloyatlari, o'lkalarning tabiiy-geografik ya'ni paleogeografik tarixini tiklash. Tokembriy geologik davrlari tarixi bo'yicha xaritalar, kesm chizmalarini chizish. Paleozoy erasi tarixi. Quyi paleozoy erasi paleogeografiyasi, tog' burmalanish tarixi va quyi paleozoy erasi supermateriklarning rivojlanishi. Yuqori paleoeoy erasi, paleogeografiyasi. Yuqori paleozoy erasi davomidagi tog' burmalanish tarixi va supermateriklarning rivojlanishi, dengiz va okean havzalarining paleogeografik tarixi. Mezozoy erasi paleogeografiyasi, foydali qazilmalari. Supermateriklarning parchalanishi va yaxlitlanishi, okean va dengizlarning rivojlanish davomi. Kaynazoy erasi paleogeografiyasi, foydali qazilmalari. Materiklar rivojlanish tarixi, paleogeografiyasi. Okean va dengizlarining rivojlanish davomi. To'rtlamchi davri davomida iqlim sharoitining tez-tez o'zgarib turishi. Doimiy muzliklar va ularning chekinib turishi tarixi. To'rtlamchi antropogen davrining O'zbekiston misolida geologik tarixi.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Darslik va o'quv qo'llanmalarning (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

Umumiy yer bilimi fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni taxlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

1. Minerallar tasnifi.
2. Antropogen geologik davri tasnifi
3. Fatsiyaviy taxlil qilib, xududning fizik-geografik sharoitini tiklash usuli
4. Tetis dengizining tarixiy paydo bo'lishi va chekinishi
5. To'rtlamchi davr geologik tarixi
6. Bo'r geologik davri haqida
7. Karbonatlar galloidlar sinfiga kiruvchi materiallar
8. Toshko'mir geologik davri haqida

9. Gondvana supermaterigining parchalanish tarixi
10. Mezozoy tog'burmalanishi
11. Paleogen va Neogen geologik davrining muhim paleogeografik tarixi.
12. Gertsin burmalanishi tarixi
13. Tetis dengizi haqida va uning chekinishi haqida
14. Gertsin tog' burmalanish epoxasi haqida
15. Baykal tog' burmalanish epoxasi
16. Ekzogen geologik jarayon haqida
17. Paleogeografiya fanining vazifasi
18. Paleozoy erasiga xarakteristika
19. CHO'kindi tog' jinslari tasnifi
20. Alp tog' burmalanish epoxasi haqida

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limining zamonaviy metodlari pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

- fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari tarqatma materiallari, elektron materiallar relief maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslarida mos ravishda pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

- geologiya faniga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan:

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Islomov O.I., Shoraxmedov Sh. Umumiy geologiya "O'qituvchi", T. 1991 yil
2. Shoraxmedov Sh. Umumiy va tarixiy geologiya "O'qituvchi", 1989 y.
3. Qurbonov A.S., Akramxo'jaev T. Geologiyadan amaliy ishlar. "O'qituvchi" 1989 yil

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Qurbonov A.S. Geologiya. T. "O'qituvchi" 1992 yil
5. Qurbonov A.S., D.Burkovskiy. Yer yuzida umurtqali hayvonot olamining paydo bo'lishi T. "O'qituvchi". 1999 yil.
6. <http://www.allbest.ru/geo.htm>
7. <http://markets/uzreport/com/fakti/cgilan=r&id=9871>
8. <http://www.geocomplex.ru/>

O'quv dasturining ishchi o'quv dasturi

A.Ma'ruza

I – bo'lim: Yer po'sti va geodinamik jarayonlar

- a. Geologiya fanlari tizimi. Mineralogiya. Geologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixi.
- b. Yerning ichki tuzilishi. Umumiy geologiyaning, yer pustining o'rganish metodlari
- c. Geodinamik jarayonlar-ekzogen geodinamik jarayonlar-magmatizm va magmatik tog' jinslari
- d. Vulkanizm. Vulkanlarning geografik tarqalishi.
- e. Tektonik harakatlar. Burmalanish. Burma eleloitlari tog' burmalanish-orogenik harkat bosqichlari.
- f. Seysmizm. Metamorfizm. Metammorfik tog' jinslari.

1 oraliq baholash – 6 ball.

- g. Ekzogen geodinamik jarayonlar. Nurash, yog'in-sochin suvlarining ishi, oqar suvlar, shamol, muzlik, doimiy muzloq yerlar. Ulardagi jarayonlar
- h. Yer osti suvlarining ishi. Karst.
- i. Dengizlarning geologik ishi cho'kindi tog' jinslari

II – bo'lim. Struktura geologiyasi. Yer pustini geotektonik elementlari. Paleoekologiya

- II-1(10) Litosfera plitalari. Makrorelef-materik ko'tarilmalar okean botiqlar. Gipotezalar
- II-2 11) Platformalar. Qadimgi platformalarning joylashuv xususiyat fiksizm va mobilizm.
- II-3 (12) Geosinklenallar. Geosinklonallarning rivojlanish bosqichlari. Geosinklinal mintaqalar.
- II-4 (13) Fatsiya. Stratigrafiya. Geoxronologiya Aktualizm

III OB - 6 ball

III – bo'lim. Tarixiy geologiya

III – 1(14) Yerning tokembriy rivojlanish bosqichi.

III – 2(15) Yerning paleozoy taraqqiyoti organik olamning sharoitga bog'liq rivojlanish

IV OB – 4 ball

III – 3 (16) Yerning mezozot rivojlanishi

III – 4 (17) Kaynazoy rivojlanish

III – 5 (18) To'rtlamchi davr. Muzlanish muammo. Organik olam. Geografiya qobiq shakllanishi. Odamni paydo bo'lishi.

B. Amaliy – laboratoriya mashg'ulotlarining mavzulari

1. Yer po'stining tarkibi. Mineral va tog' jinsi tushunchalarini aniq msollarda izohlash.
2. Minerallarning fizik – diagnostik va kimyoviy – diagnostik belgilari.
3. Minerallarning krisstal tuzilishi singoniyalar. Siametriyalik.

I. JB. Yer po'sti va mineral xossalar

4. Amaliy ahamiyati minerallar, ularni tasniflash. Sof to'g'ma mnerallar sulfidlar, balandlar.
5. Sulfatlar, karbonatlar, nitratlar, fosfatlar, volframatlar.
6. Silinkatlar, pardozlash, bezak va qurilish, kimyoviy xom ashyo minerallar.

II. JB. Minerallar sinflari

7. Tog' jinslari, jins hosil qiluvchi minerallar, cho'kindi tog' jinslari. Cho'kindi foydali qazilmalar.
8. Magmatik tog' jinslari. O'rta Osiyo va O'zbekiston polimetall rudalari.
9. Metamorfik tog' jinslari.

III. JB tog' jinslari va foydali qazilmalar

10. Ekzogen geodinamik jarayonlar. Karst surilma, sedimentatsiya, eroziya, deflyatsiya va jarayonlarning izohli lug'atini tuzish.

11. Burmalanish. Burma elementlarini o'rganish

12. Geosinklinalar, geosinklinal mintaqalarni o'rganish

13. Platforma tuzilishining kesmasi tahlili. Qadimgi platformalar geografiyasi.

IV. Chizmalar tahlili

14-amaliy ish–Geoxronologiya–stratigrafografiya birliklari tahlili.

15. Pokembriy foydali qazilmalarni xaritasini tahlil tish

16. Paleozoy stratografiya–paleontologiyasi–organik dunyo taraqqiyot tizmini chizish.

V. JB – Tarixiy geologiya tamoyillari

17. Geologik chizmalar – O'zbekistonning Amudaryodan Qizilqum janubi orqali Sirdaryogacha kesmasini tahlili

18. Geomorfologik tayanch tushunchalar–peneplen, pediple, pediment, yonbag'ir, flyuvial kabi tushunchalar izohli lug'atini tuzish.

VI. JB – Geologik-geomorfologik chizmalar tahlili.

XI. Mustaqil ish va topshiriklar mavzulari.

Geologiya – mineralogiya fanlari tuzilmasini chizish.

Singoniyalarning har biriga bittadan chizma chizish.

Sipin cho'kindi jinslarning tasnifini izohlash

O'zbekiston cho'kindi foydali qazilmalar yoqilg'i–energetika konlari matnini ifodalash.

I.Karimovning “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asari “Jug'rofiy–strategik imkoniyatlar va tabiiy xom ashyo resurslari” bobi bo'yicha referat tuzish.

O'zbekiston geografik atlasidan geologiya xaritasini o'rganish

Geoxronologiya jadvalini bo'linmalarini izohlash.

Geologik davrlarda (Toshko'mir–Perm–Yura–Paleogen) Toshko'mir zahiralarning strukturalar bo'yicha tarqalishini miqdoriy ko'rsatkichlari diagrammasini chizish.

Yer tarixidagi beshta tog' burmalanish–orogenezlarda hosil bo'lgan tog'larning ro'yxatini tuzish.

Ibtidoiy odam paydo bo'lgan manzilgohlarni izohlash.

O'zbekistonning seysmik xaritasini tahlil etish.

“Tasdiqlayman”
Kafedra mudiri _____
_____ 08.2009.

“Geologiya-mineralogiya” fanidan I - kurs 1 - semestr (5140500 – “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari”) uchun
Ishchi dastur bajarilishining kalendar tematik rejasi

№	Modul va mavzular nomlari	Mashg'ulot turi	Ajratilgan vaqt	Talaba mustaqil ishi mavzusi va mazmuni	Hisobot shakli	Bajarilishi haqida ma'lumot		O'qituvchi imzosi
						Soat	Oy va kun	
	1-modul							
1.	1.Kirish. Geologiya-mineralogiya fanlari tizimi	Ma'ruza	2	1.Geologiya-mineralogiya fanlari tizimini ta'rifi	Yozma Referat	4	IX	
	2.Yerning ichki tuzilishi. Kristal panjaralar, elementlar, simmetriya, singoniyalar	Ma'ruza	2	2.Kristall panjaralar singoniyalar o'rganish	Chizma	2	IX	
	Minerallar, tog' jinslari. Yer po'stining mineralogik tarkibi	Ma'ruza	2	3.Minerallarning nomlanishi	Yozma	2	IX	
	3.Geodinamik jarayonlar endogen geodinamik jarayonlar. Magmatizm	Ma'ruza	2	4.Magmatik jarayonlar bilan bog'liq qora va rangli metal konlari xaritasini tuzish	Xarita tuzish va tahlil qilish	4	XI-II	
	4.Tektonik jarayonlar Yerning asosiy geostrukturalari. Tog' burmalanish bosqichi	Ma'ruza	2					
	5.Geosinklinal va platformalar. Metamorfizm.	Ma'ruza	2	5.Gurskiy va b. Geologiya glova 30, 262-267-bet.				
	6.Kristallografiya simmetriya elementlari o'qi, tekisligi, markazlarni minerallar va	Laborato-	2	6.Singoniya simmetriya elementlar	Chizma	4	IX	

	chizmada aniqlash. Singoniyalar	riya ishi						
	7.Minerallarning fizik diagnostik belgilarini o'rganish. Kafedra kolleksiyasidan	Laborato-riya ishi	2	7.Qurbonov A. Geologiyada amaliy ishlar, 15-30-bet.	Yozma	2	XIII	
	8.Sof tug'ma minerallar. Metall va nometall minerallarni aniqlash. Sulfidlar, sulfatlar	Laborato-riya ishi	2	8.Amaliy ahamiyatli sof tug'ma minerallarning	Suhbat	4	IX	
	9.Galoid, oksidlar-gidrooksidlar, karbonat, volfram, fosfatlar, silikatlar aniqlash	Laborato-riya ishi	4	9.Galoid, oksidlar, fosfatlar. Silinitlarning "amaliy ishlar" kitobidan foydalanish	Kollokvium	4	XI	
	10.Ekzogen geodinamik jarayonlar nurash. Yog'in-sochin suvlarining ishi. Daryolarning, shamolning geologik faoliyati	Ma'ruza	2	8.Nurash po'sti bilan bog'liq.Mineral xom ashyolar bo'yicha yozma ish tayyorlash	Suhbat	4	XI	
	11.Muzlik, ko'l, botqoqliklar geologik faoliyati. Yer osti suvlari ishi. Yer usti reliefi o'zgarishi	Ma'ruza	2	9.Surilma, daryo tomchilari, barxanlar, qum tepalari relief shakllari profilini chizish ("Umumiy geologiya" T-1971, 137-bet)	Chizmalar taxlili	2	XI	
	12.Dengizning geologik faoliyati, cho'kindi jinslar, ular bilan foydali qazilmalar	Ma'ruza	2	10."Obshaya geomorfologiya"2-tom MGU-1964, 177 bet. X.Chinniqulov, Litologiya, T-2008, 103-156-bet.	Yozma	2	XI-IY	
	13.O'zbekiston foydali qazilma konlari va zahiralari	Ma'ruza	2	11.O'zbekiston geografiya atlas, 49,50,51bet xaritalar bilan tanishish.	Referat	4	X II	
	14.Neft-gaz, oltin va b. foydali qazilmalar hosil bo'lishi	Ma'ruza	2	12.I.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" kitobidan maxsus bobni referat yozish	Referat	4	X II	
	15.a) cho'kindi tog' jinslari-siniq cho'kindi jinslar-gil, alevrolit, qum, shag'al xemogen jinslar-tuzlar, organogen jinslar va foydali qazilmalar	Lab. ishi Lab.ishi	2 4	12.Tog' jinslari-petrografiya Cho'kindi, magmatik va metamorfik	Referat	4	I - II hafta	

	b) magmatik jinslar va foydali qazilmalar v)metamorfik jinslar va foydali qazilma	Lab.ishi	2	jinslar Yozma matn tayyorlash				
	16.Tog' jinslari namunalaridan shliflar bilan tanishish	Lab. ishi	2	13.X.Chinniqulov-Litologiya, 2008, 18-26-betlardan foydalanish	Referat	2	I-IY	

“Geologiya-mineralogiya” fanidan
Reyting ishlarnasi

No	Nazorat turlari	Soni	Ball	Jami ball
1	JB			
	1.1.Amaliy mashg'ulotlarni bajarish (1-4-suhbat)	5	5(2-2*)	2.5
	1.2.Amaliy mashg'ulotlarni bajarish (5-10-test)	5	5(3-2*)	2.5
	1.3.TMI (Amaliy axamiatli minerallarning tavsifini tuzish)	1	5*	5
2	OB			
	2.1.Yozma ish (1-5-mavzular)	1	15	30
	2.2.Test	1	15	
3	Yab			
	3.1.Yakuniy baholash	1	15	15
	3.1.1.Yozma ish (3 ta savol)		(5x3=15)	
	3.2.Test (30 ta savol)		(30x0,5=15)	
	Jami:			100

“Geologiya-mineralogiya” fanidan baholash mezonl

1.1.-1.2-Laboratoriya va amaliy mashg'ulotda qatnashib, uning topshiriqlarini to'la sifatli bajargan talabaga 2.5-3.0 ball beriladi, agar to'la bo'lmasa bajarish darajasiga qarab 1.0-2.0 ballgacha beriladi.

1.3.*Amaliy ishlari bo'yicha berilgan talabalar mustaqil ishlarining bajarilishi hajmi va sifatli qarab 1 dan 2 ballgacha berilishi mumkin (topshiriqlar to'liq va sifatli, ijodiy tarzda bajarilgan -1.8-2.0 ball, sifatli va meyor talabalari darajasida -1.5-1.7 ball, o'rta daraja -1.1-1.4 ball).

2.1.Oraliq baholash yozma tarzda o'tkazilib, undan 3 ta savolga javob berishi so'raladi. Har bir savol 5 ballgacha baholanadi.

- Agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo'lsa-4.6-5 ball
- Savolning mohiyati umumiy ochilgan asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa, -4.1-4.5 ball
- Savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa 3.6-4 ball
- Savolga umumiy javob berilgan, ammo ayrim faktlar to'liq yoritilmagan bo'lsa 3.1-3.5 ball
- Savolga javob berishga harakat qilingan, ammo chalkashliklar bo'lsa -2.6-3 ball beriladi

2.2.Talabaning mustaqil ishi-“Amaliy ahamiyatli minerallarning tavsifi” mavzu bo'yicha referat tayyorlanadi:

- Referatda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo'lsa-4.6-5 ball
- Mavzu mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor-4.1-4.5 ball
- Mavzu mohiyati yoritilgan, ammo arziyas kamchiligi bo'lsa -3-4 ball beriladi
- Mavzu mohiyati yoritilgan, ammo ayrim kamchiliklari bor bo'lsa-2.5-3 ball beriladi.

3.1.Yakuniy baholashda talaba 3 ta savolga yozma yoki 30 ta test savoliga javob berishi lozim.

- Har bir yozma savolga 5 ball ajratiladi
- Agar savol mohiyati to'la ochilgan bo'lib, mavzu bo'yicha talabaning tanqidiy nuqtai-nazari bayon qilingan bo'lsa-4.5-5 ball
- Savolning mohiyati to'la ochilgan, asosiy faktlar to'g'ri bayon qilingan bo'lsa -4.1-4.4 ball
- Savolga to'g'ri javob berilgan, lekin ayrim kamchiliklari bor bo'lsa -3.1-4 ball
- Berilgan savolga javoblar umumiy va kamchiliklar ko'proq bo'lsa -2.6-3 ball beriladi
- Test savolining har biri 0.5 ballik tizimida baholanadi.

“Biogeografiya” fanidan baholash mezonlari

1. Amaliy va laboratoriya topshiriqlari yozma ish, xarita bilan ishlash, tayanch ilmiy topshiriqlarni ta'riflash tarzida o'tkaziladi. Xaritada obyektlarning joylashuvi, regionlar chegaralarini o'tkazishga asosiy e'tibor beriladi. Topshiriqni yayakunlab, baholanayotganda shu shartlarga asosiy e'tibor beriladi. Topshiriq ish uchun belgilangan ballning 70-80 foizi ish mohiyati to'g'ri bajarilgani va uni ayta bilishi uchun beriladi.
2. Xaritani bilish qatorida organizmlar taksonomiyasini-sistematikaning asosiy kategoriyalari tbaqalarini bilish-ularga misollar keltirishga, rayonlashtirishda regionlar chegarasini to'g'ri o'tkazish va qanday tamoyil orqali olam, oblast, kichik oblastlarga bo'linishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Ekologik omillar, biotsenozlar, populyatsiyalar, hayotiy shakllar, biologik nul, biomassa, biologik mahsuldorlik, evolyusion taraqqiyotda muhitning roli talabaning anglab yetganiga bir-ikki ball qo'shiladi. CH.Darvin, V.Dokuchayev, N.I.Sukachev, V.I.Vernadskiy, T.Zohidov, Q.Zokirov kabi olimlarning g'oyalarini bilishiga e'tibor. Hozirgi davrda muhit o'zgarishiga antropogen ta'sir nimalarda namoyon bo'lishi, xalqaro ekologik muhit, iqlim, bioxilma-xillikni qaratilgan hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi siyosatida atrof muhitni yaxshilash qay darajada ekanligi, ko'rilyotgan choralar bilgan talabaning balliga ball qo'shiladi. Yozma ishlarda talabaning savodxonligi hisobga olinadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSTETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

G E O M O R F O L O G I Y A

fanidan

MA'RUZALAR MATNI

Tuzuvchi: g.f.n.dots.A.Mamatov

Qarshi - 2009 yil

***I-ma'ruza. GEOMORFOLOGIYANING PREDMETI VA
VAZIFASI, METODLARI. TABIIY VA ER HAQIDAGI FANLAR
O'RTASIDA TUTGAN O'RNI. RELYEF HAQIDA UMUMIY
MA'LUMOTLAR, ASOSIY TUSHUNCHALAR***

REJA:

1. Geomorfologiya – yer relyefi haqidagi fan.
2. Geomorfologiyaning vazifasi, maqsadi.
3. Relyef elementi, relyef tipi geomorfologiyaning tarmoqlari.
4. Geomorfologiyaning geografiya va geologiya fanlari o'rtasidagi tutgan o' rni.
5. Geomorfologiyaning metodlari ta' rifi.
6. Relyefning yoshi va uni aniqlash metodlari.

ADABIYOTLAR

1. Panov D.G. Obshaya geomorfologiya.izd, "Visshaya shkole" M, 1966.
2. UzSE, Z-tom Geografiya fanlari tizimi, 1971.
3. Nazarov M.Z. Muxandislik geologiyasi va atrof – muhitni muxofaza qilish.
4. Qurbonov A. Geologiya, T. "O'qituvchi" 1992.
5. Leonteyev O.K. Obshaya geomorfologiya, M, "V.SH." 1979.
Richagov Y.K.

Yer yuzasi relyefining hosil bo'lishi, taraqqiyot tarixi va hozirgi o'zgarishlari haqidagi fan geomorfologiyadir.

Yer yuzasi shakllarining yig'indisiga relyef deyiladi. Tabiiy jism tarzidagi muayyan o'lchovga ega bo'lgan relyef qismlari relyef shakli deyiladi. Dast avval relyefni baland va past shakllarga ajratiladi. Yer ustidan kutarilgan relyef qismlari dung relyef, yer yuzasidan past bo'lgan chuqurliklar past relyef xisoblanadi.

Relyef elementi deb bir relyef shakllari yig'indisini tashkil etuvchi yuzasi, nuqtasi, chizig'i kabi ayrim relyef bo'laklari shakliga aytiladi.

Relyef tipi deb, bir xil kelib chiqishiga ega bo'lgan, muayyan maydonda tartib ravishda takrorlanib turuvchi relyef shakllari yig'indisiga aytiladi.

Relyef tiplari guruhi deganda yer yuzasining ancha katta maydonlarida uchraydigan bir xil sababdan kelib paydo bo'lgan alohida relyef tiplari tushuniladi.

Relyefning genetik tiplari deb, bir xil kuchlar natijasida paydo bo'lgan relyefga aytiladi.

Geomorfologiya tarmoqlari va bo'lishi:

Umumiy geomorfologiya.

Regional geomorfologiya.

Umumiy geomorfologiya–relyefning paydo bo'lishi va rivojlanishining umumiy qonunlari va uning hozirgi o'zgarish jarayonini o'rganadi.

Regional geomorfologiya – Yer yuzasining ayrim bo'laklari relyefining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi masalalarini tadqiq etadi.

Paleogeomorfologiya geologik o'tmishning alohida bosqichlarida rivojlanishi o'rganiladi. Amaliy geomorfologiya – inson ho'jalik faoliyatining turli sohalarida relyefda maqsadli foydalanish masalalari bilan shug'ullanadi.

Umumiy geomorfologiya.

Strukture geomorfologiya.

Dinamik geomorfologiya.

Iqlimiy geomorfologiya.

Geologiya va geografiya fanlari tizimida tutgan o'rni – I.S.Shukin. relyef geografik landshaftining asosiy elementi bo'lganligi sababli geografiya fanlardandir.

Boshqa tadqiqotchilar geomorfologiyani geologiya fanlariga kiritadilarki, relyef joyning geologik tuzilishi va geologik ta'rifi bilan chambarchas bog'liqdir. Yer haqidagi fanlar o'rtasida mustaqil fandir – chunki o'zining predmeti va uslubiga ega. “ekzogen va endogen jarayonlar o'zaro ta'siridan paydo bo'ladi va o'zgarib turadi. Tashqi ekzogen jarayonlar – relyef hosil qiluvchi faktor sifatida geografik faktorlar birinchi navbatda iqlimiy omillar bilan bog'liqdir. Iqlimning geogik o'tmishdagi o'zgarishi asosan zonalar bo'yicha har xil bo'lganligi tufayli relyef hosil qiluvchi omillar ham o'zgargan. Hozirgi vaqtda iqlim zonalariga ekzogen jarayonlar borishiga to'g'ri kelmaydigan relyef shakllari relekt shakllar deyiladi, chunki ular hozirgi zamon iqlimidan boshqa sharoitda shakllangan.

Ma'lumki, bir geografik sharoitda paydo bo'lib, hozirgi boshqa o'zgargan tabiiy sharoitda ham rivojlanishda davom etayotgan relyef shakllari meros qolgan. Unosledobaneya relyef deyiladi. Demak, relekt va vors relyef shakllari Geografik faktorlar tomonidan yaratilgandir. Endogen faktorlar muayyan joyning tiktnik rivojlanishi va tuzilishi bilan tafavut qiladigan relyefni shakllantiradi. Yer po'stining turgan platforma viloyatlari va nisbatan faol harakatdagi geosinklinal viloyatlari bilan esa o'zgacha relyef shakllanadi, chunki relyef hosil qilish faktorlar yo'nalishi bu yerlarda boshqacha kechadi.

Ma'lumki, gektonik harakatlar aniq davriylik hususiyatiga ega bo'ladi, natijada relyefning shakllanishi ham shu davrga mos keladi. Yer po'stining endogen jarayonlari va relyef hosil qiluvchi omillari natijasida yer yuzasida yirik morfostrukturalari yaratiladi. Joyning geologik tuzilishi va rivojlanish ta'rifi bilan bog'liq morfostrukturalarga katta – kichik tog' tizmalari, botiqlar to'g'ri keladi. I.P.gerasimov tomonidan 1946 yilda taklif etilgan morfostrukturalar tashqi geografik jarayonlar va omillar tomonidan yaratiladi. Morfostrukturalar ko'pincha iqlim mintaq va har xil sharoitli tabiiy zonalarda har xil yo'nalishda va har xil o'lchamda va darajada bo'ladi.

Geomorfologiya metodlari fan sifatida mustaqil tadqiqot metod MDU olimlari N.V.Bashinena, 07 K. Leontes, M.V. Peyotrovskiy A. I.Spridinov, I.S. Shukin va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Morfologiya metod – ekzogen jarayonlarning miqdoriy va sifatiy belgilarining relyef shakllanishdagi rolini tahlil etish asosida uning paydo bo'lishini aniqlash bu usul mohiyatidir.

Morfofosial metod-relyefni o'rganish–korrelatsiya etilayotgan yotqiziqlar tartibini va fakial sharoitini o'rganish orqali amalga oshiriladi. Bunda relyefning yoshi tashqi omillar ustun bo'lgan skulptura relyefini tashkil etgan yotqiziqlar tarkibi relyefning paydo bo'lish davri deb xisoblanadi. Morfologik metod – relyef bilan joyning geologik struktura va litologiyasi tuzilishi bog'liqligi orqali uning kelib chiqishini aniqlaydi, ya'ni relyef geologik tuzilishga bog'liq bo'ladi.

Morfotektonik metod – neogektonik harakatlari bilan bog'lab o'rganiladi. Chunki hozirgi relyef shakllanishi ko'pincha neogektonik harakatlar xarakteriga buysunadi.

Morfogeografik metod – geografik sharoitning o'zgarishi bilan relyefning o'zgarishi ro'y beradi deb hisoblanadi.

Morfodinamik metod – hozirgi iqlim sharoiti bilan neogektonik harakat, geologik tuzilish bilan bog'liq relyef hosil qiluvchi kuch va jarayonlar relyefning qaysi yo'nalishga taraqqiyot dinamikasini belgilash prinsipiga asoslanadi.

Paleogeomorfologiya metodining mohiyati relyef yoshi va taraqqiyot bosqichlari o'tmish paleogeografik sharoitini tiklash prinsipiga bog'liq deb qaraladi.

Geomorfologik tahlil – relyefning paydo bo'lishi, taraqqiyot tarixi, relyef dinamikasining hozirgi jarayonlarini kompleks taxlil etib o'rganish orqali geologik tuzilish, tarixiy rivojlanish va hozirgi relyefga ta'sir etuvchi jarayonlarga relyef shakllanish qonuniyatlari ochiladi. Geomorfologik tadqiqotlar dalada tadqiq etish, laboratoriyasida ishlash cameral ishlash. Bu

tadqiqotlar yordamida geomorfologik kartalar tuziladi. Geomorfologiya kartalar tuzishda relyefning paydo bo'lishi va yoshini aniqlash muhim ahamiyatga egadir.

Relyef yoshi – absolyut va nisbiy yoshga bo'linadi. Absolyut yosh nisbatan aniq metodlarga asoslanadi. Shuningdek, arxeologik aralashmalar bilan aniqlanadi.

1. Nisbiy yosh – korrelyativ yotqiziqlar yordamida relyef yuzasining emirilishi va uning qushni yondosh maydonlarida tuplanishi yordamida aniqlanadi. Akkumulyativ pasttekisliklar tarkibida fauna va flora qoldiqlari ularning yoshini aniqlashga yordam beradi.

2. Nisbiy yoshni aniqlash – fakiyalar almashnuvi – organik qoldiqlar soqov fakiyalarga yondosh fakiyalarda bo'lishi mumkin.

3. Ikki katning chegarasini o'rganish metodi.

4. Nurash usti tagidagi relyefning xarakteri yordamida nisbiy yosh o'rganiladi.

-ma'ruza. GEOMORFOLOGIYA FAN SIFATIDA RIVOJLANISH TARIXI. YIRIK OLIMLARNING ISHLARI

Geomorfologiya fani geologiya va geografiya ishlari sohasiga tegishli bo'lgani bois shu fanlar bilan birgalikda rivojlangan. Relyef haqidagi ma'lumot insoniyat tarixining eng qadimgi davridan boshlab tuplab boshlangan. Inson jamiyatining tabiatga ta'siri chuqurlashgan sayin relyefni o'rganishga qiziqish orta boshlagan. Antik davr (Or.Av.546 – 476) yozishmalarida relyef haqidagi ma'lumotlar tartibsiz, tizimga olinmagan holda uchraydi. O'rta asr arab va O'rta Osiyolik allomalarning asarlarida geografik tushuncha va atamalar geografiya fani bilan birga keltiriladi. A. R. Beruniy yer yuzasini qiyofasini o'zini qator asarlarida, jumladan "Geodeziya", "Hindiston", "G'arbiy qit'a va ma'muriylar haqida ma'lumotlar", shuningdek "Qonuni ma'sudiy" asarining 4 maqolasini 9 bobida shunday yozadi: "Yunonlar atlantika sohilini dunyoning oxiri deb bilganlar, ularga yaqin orollar / Konar, Madoyra, ehtimol Azor/ nigina bilganlar. Ular uzoq sharqdan naryoqni bilmaganlar" deb yozgan. "Yerning narigi tomonda jazirama issiq bo'lsada, qattiq sovuq bo'lsada odam yer yashashi uchun hech narsa xalaqit bermaydi" deb yozadi.

Geomorfologiyaning fan sifatida shakllanish tarixini quyidagi bosqichlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

1. Geomorfologik bilimlar tarixini dastlabki bosqichi atnik davr yozishmalarida tarqoq, tartibsiz bo'lsada, yer usti tuzilish haqida ma'lumotlar tuplana boshlagan. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan to XIX asrning birinchi o'n yilliklariga qadar bo'lgan bu bosqichda Amerikaning ochilishi, Hindistonga boradigan yo'lning Afrika janubi orqali ma'lum bo'lishi, Avsrtaliyaning qirg'oqlarining kashf etilishi, Antarktidaning ochilishi bilan ishlarda geomorfologik bilimlar tuplanadi. M.Lomonosofning "Osloyaxn nix" asarida yerning ichki va tashqi kuchlari ta'sirida relyef taraqqiy etadi degan g'oya olg'a surgan. D. Gettonning "Tooriya zemli" asarida gektonik sikl haqidagi tuhunchani fanga olib kirdi. P.S. Pallas tog'lar kutarilish kuchlari natijasida paydo bo'ladi degan nazariyani / gipoteza/ olg'a suradi. 1830 yilda Ch. Layell "Geologiya tamoyillari" nomli kitob, shu davrdagi yer tarixidagi voqealar, xalokat tasavvurlari hukmronligiga qarshi evoluyutsion yo'l bilan rivojlanshi olg'a surdi. Yer ustidagi shakllar yer po'stining vertikal harakatlari tufayli vujudga keladi, keyin uzoq davrlar mobaynida tashqi kuchlar ta'sirida asta – sekin tekislanadi. Tashqi kuchlarning yemirilishi ta'sirida yer ustining yemirilishini deptadtsiya jarayonlari deb atashni taklif etadi., shuningdek, XIX

asrning boshlarida daryo vodiylarining yemirilsih tog'lardagi qadimgi muzlanish haqidagi tushuncha paydo bo'ladi.

2. Geomorfologik bilimlarning tuplanishi va tartibga olinish bosqichi turli mamlakatlarda topografik ishlar avj olishi bilan, geologik qidiruv ishlari natijasida (XIX asr birinchi yarmi). Geomorfologik tushunchalarni ilmiy talqin etish zaruriyati paydo bo'ldi. Kant – lapasning yer – olov suyuq moddadan planetalar hosil bo'lgan deb ko'rsatuvchi komogonik gepotenuzasi asosidagi yer rivojlanishining kontraksiya nazariya etakni o'rin tutgan edi. Sovush natijasida hajm qisqaradi, yer po'stining yuzasi qisqarishi, silkinish kuchlarining ta'sirida yer yuzasi yirik shakllar tog' va dengiz botiqlari paydo bo'ladi deb taxmin etiladi. Amerika geologi Dj.Den, hajm qisqarishi yer po'stining chuqqisiga olib keladi, natijada materik va okeanlar paydo bo'ladi. Bunda bukilish va burmalanishini hajmini qisqarishi vujudga keltirilib geoantiklinal va geosinklipallar paydo qiladi. Dekning geosiniklapalar nazariyasi o'sha davr geologiya fanida keng ommalashadi. Keyinchalik kontraktatsiya nazariyasi olimlardan A.Goym, Zyuos asarlarida rivojlantirildi. Ayniqsa, Zyussning "Yer qiyofasi" asarida X asrning ikkinchi yarmida butun planetamizning yer yuzasi haqidagi bilimlar yakunini topdi. 852 yilda K.Naumean "yer usti morfologiyasi" atamasini fanga kiritdiki, bu tushuncha "orografiya", "orografik tasvir" iboralari bilan almashtirilib, yer yuzasi shakllarini o'rganishga yondashish tubdan o'zgardi. Relyef shakllari bilan geologik tuzilish sharoiti taqqqoslanib, ular o'rtasidagi aloqa va hozirgi zamon relyef rivojlanish jarayonlariga e'tibor kuchaytirildi.

1871 yil N.P.Karopotnik materik muzlanish nazariyasini, V.V. Dokuchaev daryo vodiysini rivojlanishi qonunini ishlab chiqarishda.

3. Geomorfologiyaning mustaqil ilm sohasi sifatida shakllanish bosqichi yo'nalishlarining taraqqiyoti XIX asr oxiri XX asr boshlarida relyefning o'rganishning yangi metodlari paydo bo'lishi munosabati bilan geomorfologiya aloxida fan sifatida ajralib chiqdi. Bu metod Amerika olimi M.V.Devs tomonidan ishlab chiqarilib "tushuntirish" metodi deb atalishi. O'tmish jarayonlarining hozirgi relyef shakllanishiga ta'sirini aniqlash mohiyati bu ta'limotning asosini tashkil etadi. V.M.Devsning ushbu ta'limoti "Geografik sikdalar ta'limoti" deb ataladi. Yoki geomorfologik sikl deyiladi – ayrim olimlarning fikricha (Louson atamasi).

Djilbert, Dukuchaev, Cherskiy, Pikitin va boshqa olimlarning yaratgan relyefning evolyutsion taraqqiyoti nazariyalari ijodiy rivojlantirilib, DSBES relyefning taraqqiyoti uchun etakchi alomatiga ko'ra DVZS normal – mutasil eroziya, cho'l – eol, muzlikglyasial, dengiz rivojlanish shakllarini ajratadi.

Geografik sikl davomida relyefning ketma-ket taraqqiyotini quyidagicha tasavvur etish mumkin.

Gorizontal tekislikda vaqtni, vertikal chiziqqa balandlikni qo'limiz. Dastlabki davrda relyef V balandlikka ko'tarilgan deb xisoblaymiz va A V chuqurlikkacha yemiriladi. deylilik 7 A balandlik sathdagi dahyo vaqt o'tishi bilan C yuzasiga etadi. Bir vaqtning o'zida suv ayirgich C yuzagacha pasayadi. Parchalanish ikkinchi bosqichida A -V dan C yuzaga keladi. Kelgusida daryoning asta - sekin chuqurlashuv faoliyati oqibati va emirilgan maxsulotlarning suv ayirgichdan olib ketilaverilishi rivojlanish kuchaya boradi. Natijada balandlik yemirilib - yemirilib, daryo vodiysi chuqurlashib boradi. Shunday qilib suv airg'in balandlikning pasayishi, yon bag'irning tekislanishi, oxir - oqibatda tulqinsimon yassi tekislik bo'ladiki, bu tekislik deneplen deyiladi. Geografik sikl davomida dastlabki yosh relyef shakllari etuk va kuxna shakllarda aylanish jarayonini boshdan kechiradi. V.Devs normal sikl deb atagan paneplen hosil bo'lish suv oraziyasining oxirgi maxsulotidir. 1924 yilda V. Penk xuquqi "Morfologik taxlil" asarini e'lon qildi. Bu kitob geomorfologiya rivojlanishida nazariy asos bo'lib xizmat qildi deyish mumkin. Bunda V. Penk dekudatsiya bilan tiktonik harakatlarning aloqasiga asosiy e'tiborini qaratdi. Tiktonik harakatning sur'ati va yo'nalshi asosida relyefning shakllanishini va o'rganish aniqlash lozim deb izohlaydi. V.Penk. Relyefning dakutatsiya jarayonlari natijasida emirilishidek korrelyativ yotqiziqlar hosil bo'ladiki, bularni o'rganib relyefning rivojlanish tarixini aniqlash mumkin.

Natijada kengayotgan predmet yuzasi xisobida tekislangan yassilangan yuza bo'ladi. Bu jarayon pediplatsiya deb ataladi. Pediplatsiya oqibatida yassilanish pediplan deb ataladi. L.Kich fikricha pedplanlar meteriklar yuzasida keng tarqalgan. Yer materiklari tarixida L.keng uchta yassilanish bosqichini ajratdi; tabur davri yassilanishi tomokron (erta nebon) va hozirgi zamon yassilanishi yuza bosqichlari bo'lgan. Tadqiqotchi aniqlashicha, hozirgi zamon relyef yassilanishi bir necha yuzadan iborat bo'lib, bu yassilanish tekislanish sikllari materiklarda dengiz trangressiyalari davrlariga mos keladi. Dengiz qirg'oqlarini tavsiflash, suv osti relyefini o'rganish keyingi davrlar geomorfologiktadqiqotlarning muhim tomonlarini tashkil tuzib yer yuzasini o'rganish kuchayishi munosabati bilan boorish qiyin bo'lgan o'lkalarni relyef hosil qiluvchi jarayonlarini o'rganish va ulardan xalq ho'jaligida foydalanish sohasida katta tadqiqotlar olib borilmoqda, erokomik metodlar bilan o'rganish sohasida xalqaro hamkorlik mustahkamlanmoqda. Hamdo'stlik mamlakatlarida geomorfologiyaning rivojlanishi bevosita ishlab chiqarishining talabidan kelib chiqib, hamdo'stlik davlatlarida aniq geomorfologik tadqiqotlar tezkor rivojlandi, Moskva, San- Peterburg, Kiev, Toshkent davlat

Universitetlarida geomorfologiya kadrlar tayyorlandi. Qator geomorfologik ilmiy maktablari shakllandi. K.A. Markov Rossiya F.A. Geografiya institutida geomorfologiya kartalashtirish yo'nalishi shakllandi. Geomorfologiya regional yo'nalish jumladan O'zbekiston Respublikasining kompleks geomorfologiya kartasi tuzildi. 1980 yilda nashr etilgan ikki yildan O'zbekiston Geografiyasi atlasida bir nechta karta geomorfologiyaga tegishli. O'zbekiston hududning gipsametric kartasi, relyef parchalanish zichligi, relyef parchalanish chuqurligi, geomorfologik kartasining muhim relyef hosil qiluvchi jarayonlar kartasi qishloq xo'jalik maqsadlari uchun relyefni tipizatsiyalashkacha 7 ta karta tuzildi. O'zbekiston geomorfologik kartasida akumulativ relyef va ishlangan relyef kabi ikki guruhda 14 tiplar guruhiga va 36 ta genetik tipga bo'lindi. Relyef hosil qiluvchi jarayonlar, jumladan zoljarayonlari karst jarayonlarini o'rganish sohasida ancha muvofaqiyatga intiladi.

Rossiyada doimiy muzloq yerlar relyefni, cho'l relyefini hosil bo'lishi B.A.Feodrovich, V.H.Kunit, V.Petrov, A.G.Babaev va boshqalarning ishlari Rossiya, Qozog'iston ayniqsa Turkmanisto va – cho'llar instituti jahon ahamiyatiga moliy ishlar amalga oshiriladi. Relyef tushunchalarni nomlash va tamoyinlarni ishlab chiqishda akademik K.P.Geresimovning xizmatlari kattadir. Yer ustining planetar xususiyatlari ya'ni geotaturalar va morfastrukturalar elementi deb ataladi. Geotekturalarga materik platformalar va okeanlar hafzalari kiradiki, ular o'ziga xos hilma – hil relyef elementlaridan tashkil topgan. Peonetar relyef – geotektura yer chuquru tuzilishining geologik tuzilishining va bo'lishiga ajratiladi. Morfastruktura elementlari materik va okean botiqlari ichki qismida geologik tuzilishi tafovutiga ajratiladi. Marfostrukturalar endogen va egzogen jarayonlar qarama – qarshi ta'siri natijasida shakllangan yer ustining yirik shakllaridir. Geostruktura – morfostrukturalarga tekisliklar tog'li o'lkalar plat ova tog' masiflari misol bo'la oladi. Yer ustining kichikroq shakllari esa marfostrukturalarni miqyaslashtirgan bo'lib, ular marfostrukturalar deb ataladiki, ular geologik rivojlanishga mos keladigan egzogen jarayonlar natijasida shakllanadi. Jarlik, qirlar, burxonlar, qum va boshqa davrlari kabi tog'li va tekislik relyefi mavjud bo'lib, ularni o'rganishda qator yutuqlarga erishilgan. Xususan, to'rtlamchi davr yuzalarini o'rganishda Yu.A.Skvorsov, G.F.Teyutxin M.M.Mamatqulov, O.Poslovskayalarning xizmatlari beqiyosdir. Darhaqiqat, Yu.A.Skvorsov G.F.Teyutxin, O.Yu.Poslyaviskaya va boshqalar daryo terrassalari to'rt yuzaga bo'lib, kesgan davrning oxiri va to'rtlamchi davr yuzalarini (nesgen oxiri to'rtlamchi davr boshlari) Toshkent asri (er to'rtlamchi davr) Mirzacho'l va Sirdaryo yuzalariga ajralib bular daryo terrassalaritarzida namoyon bo'lgan. O'rta Osiyo geologic va geomorfologiyasining asoschilari akademiklar

G.O.Mavlonov, I.Satbaev, X.Abdullayev va boshqalar bir vaqtning o'zida regional geomorfologiyani asoschilari ham xisoblanadilar. Shuni ta'kidlash lozimki, L.K.Sva lyossimon jinslarning mintaqamizda keng tarqalganligi sva surilma kabi jarayonlar bo'lishiga olib kelgan zotan G.O.Morlonov ilmiy maktabi shu yo'nalishda dunyo e'tirofiga sazovar ish qilgan. Ya. A.Levin, M.A.Abdujabborov, M.Mamatqulov, A.Alimov, Otaboev, R. Otajonov va boshqalarning ayrim jarayonlar, xususan karst sohasidagi ishlari regional geomorfologiyaga qushilgan xissa bo'ldi. Janubiy O'zbekiston geomorfologiyasida va boshqalar izidan borib ma'lum qushganligimizni eslatib o'tamiz.

Tektonik harakat bilan dekudasiyaning turlicha birikmalari turli xildagi relyef shakllarini yaratish mumkin.

B.M. Devs va V.Penkning geomorfologiya nazariyalari XX asrning birinchi o'n yilliklari davomida geomorfologiyani yetakchi tasavvurlari sifatida xizmat qildi.

4. Horijiy o'lkalardagi hozirgi geomorfologiyani holati 2 – jahon urushdan keyingi davrlarda geomorfologik tadqiqotlarning natijalari turli amaliy sohalarda qo'llanilishi munosabati bilan deyarli barcha o'lkalarda geomorfologiya fani va uning tadqiqotlari rivojlana boshladi. Asosan geomorfologik kartalashtirish va geomorfologiya jarayonlarini o'rganishga ko'proq e'tibor berildi. Deyarli hamma mamlakatlarda geomorfologik kartalashtirishda e'tibor kuchaydi. Tabiiy sharoitga bog'liq ravishda relyefning muayyan tiplari kartalashtirildi. Chunonchi Polshada muzlik relyef shakllarini kartalashtirishga e'tibor berilgan bo'lsa, fraksiyada qadimgi ishlangan yuzalarni alohida tadqiq etadi. Aniq amaliy maqsadlar uchun maxsus geologik kartalar tuzila boshlandi. Skandinaviya davlatlarida to'rtlamchi va hozirgi muzlik bilan bog'liq relyef shakllarini qirg'oqlar qadimgi muzlanish jarayonlarining ta'sirini tadqiq etishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek bu davlatlarda va shimoliy o'rta davlatlarda baliqchilik va neft konlari qidirish maqsadidan kelib chiqib kongenental elef suv osti relyefini o'rganish tobora ortmoqda.

Fransiya olimlari yer yuzasi shakllarini iqlimiy omillarini tadqiq etmoqdalar. AQSHda regional geomorfologiyaga kuproq e'tibor berilmoqda, geomorfologiyani nazariy asoslarini ishlashga o'rganish ortdi.

B.M.Devsning geomorfologik skllar nazariyasi bilan bir qatorda yassilangan yuza – pediment nazariyasi kuproq tan olindi. Ma'lumki, emirilayotgan yer bag'ri etagida maxsulot tuplanib asta sekin tekislanadi. Bu yon bag'irning tekislanishi bilan bir vaqtda qarama – qarshi yon bag'rini chekinishi ham ro'y beradi. Natijada kengayotgan pediment yuzasi xisobiga tekislangan – yassilangan yuza hosil bo'ladi.

***-ma'ruza.* TEKTONIK HARAKATLARNING TURLARI,
OROGENEZ VA TOG' BURMALARI JARAYONLAR METAMORFIZM VA
UNING TURLARI. ASOSIY METAMORFIK TOG' JINSLARI**

REJA:

1. Tektonik jarayonlarning sabablari va turlari
2. Epeyrogenik yoki netektonik jarayonlarning mohiyati va
3. mazmuni.
4. Tog' burmali harakatlar. Burma elementlari. Burmalarning
5. morfologik tiplari.
6. Uzulma yoki yorma (dieyunktiv) tektonik jarayonlar va
7. ularning relyefda aks etishi.
8. Geostruktura, morfostruktura va morfoskulptura
9. tushunchalari.
10. O'rta Osiyo O'zbekiston hududidagi relyef shakllarining geologik strukturalari bilan bog'liqligi.

A D A B I Y O T L A R:

1. Qurbonov A. Geologiya, T.O'qituvchi 1992 54 – 62 betlar.
2. Nazarov M.Z. Muxandislik geologiyasi va atrof- muhitni muhofaza qilish, Toshkent "O'zbekiston" 1994 yil
3. B.N.Turskiy, Turskiy G.V. Geologiya. Minsk, "Visshaya shkola" 1985 g
4. Xain V.Ya.Makatlov A.E.Obshaya tektonika M.Nezra 1985
5. Kosgen Yu. A. Tektonike, "Nedra" Moskva 1983 g.

Yerning ichki ya'ni endogen jarayonlarining bosh jarayoni tektonik jarayonlar hisoblanadi. Yer po'stining va yer ichki qismining umumiy va xususiy harakat qonunlarini tektonika fani o'rgandi. Yerning ichki qismida ruy beradigan va yer yuzasida notekisliklarni ya'ni burmalarni vujudga keltiradigan harakatlar tektonik harakatlar deyiladi. Tektonika so'zi – qadimgi yunon tilida qurilish, tuzilish, struktura ma'nolarida ishlatiladi. Tektonik harakatlar natijasida yer po'stida tekis ustma – ust joylashgan qatlamlar, bukilib, burmalanib, yoki keskin uzilib yer yuzasida relyefning keskin, bir – biridan farq qiluvchi shakllarini xosil qiladi. Yer po'stini tashkil etgan qatlamlarning shakli o'zgarib, yani deformatsiyalanib burmalanadi. Burmalarning turli joylarida uzilib, turli uzilmalar hosil bo'ladi. Yer po'stida

Afrikaning Yevro Osiyo platformalari ajratib turuvchi tekis geosinklinal oraliq yer po'sti bo'lishi bilan ta'riflanadi. Oraliq o'tuvchi zonalarning megarelyefi birinchidan orollar yoyi va relyefi okean qarining mavjud bo'lishida o'z aksini topishi okean tomonidan chuqur okean qari bilan chegaralangan ayrim chuqqulari okean suvidan ko'tarilib turuvchi okean tizmasidan iborat zona orollari yoyi deb ataladi. Dengiz botig'i chuqur materik sayozligi va yon bag'ridagi yaqqol ajralib turgan o'ziga xos yotiq chuqurlikdir. Ahota dengizining janubiy yotig'i bilan Kuril orollari yoki Kuril – kamchatka okean qari orlida joylashgan eng yirik okean qari chukmalari 3-10 km mareanne qar xatto 11022 tashkil etadi. Shunday qilib oraliq zona bu chuqurlikning eng katta virtekal parchalanish relyefiga ega bo'lgan tektonik harakatlar bo'lib turuvchi zonadir. Barcha geosinklinal viloyatlar yuqori seysmik faol mintaqalar hisoblanadi. Sesyznizm tarqalishida qonuniyat mavjud bo'lib zilzila uchog'i okean qarida joylashada. Oraliq zonalar hozirgi vulkanizm zonasi hamdir. Orollar yoyi tektonik, vulkanik va seysmik faol okean botig'i bilan okean qari oralig'idagi mintaqalardir. Chuqur chukmalar okean qarining yoy shaklidagi yer po'sti yoriqlari bo'lib yer sharida 35 ta okean qari mavjud. Okean qarining

28 tasi tinch okeanida 5 tasining chuquqligi 10 ming metrdan oshiq, eng past qari Mareana qarining chuquqligi 11022 m bu qari shivetsariyalik olim Jan Pekr o'z yordamchisi bilan 1960 yil "Tres Bateskafeda" batafsil o'rganilgan okean qarining kundalang kesimi u harifi ko'rinishida bo'lsada tagi tor yassi yuzali tekislikdan iborat bo'ladi. Qar yon bag'ri yuqori qismidan 5-6 darajada past simda 25 darajada qiyalikda bo'lishi aniqlang. Qar yon bag'irlari zinasimon ba'zan chuqur juyaksimon darajalar bilan parchalangan. Qarilarning ko'pchiligi semitrik tuzilgan. Masalan Turel kamchatka va tongel qarilarining yo harbiy yon bag'irlari bilan va tik sharqiy yon bag'ir qisqa va nishab, ayrim qayerlari chuqur emas. Chunonchi va Banger qarilarining chuquqligi 7500 m oshiq emas. Markaziy Amerika Vetial "G'arbiy Denoneziya" ya'ni yangi devineya qobig'lari 7000 m Xenuranga Temur va Kay okean qarilari atigi 4000 m chuquqlig bilan ta'riflanadi. Okean qarilarining biofizik metodlar yordamida o'rganish shuni ko'rsatadiki og'irlik kuchi kam deofizitatsiya maydonlari hisoblar ekan. Oddatda chuqur okean qariga ko'p episentir yuza bo'lgan zilzilalar to'g'ri keladi. Bunday zilzilalar oddatda kuchli va talofatli yer qismlari yer qimirlashlar bo'lishi ko'pchilikka ma'lum.

Orollar yoyining marfalogiyasi juda murakkab, orollar yoyi odatda chuqur okean qari bo'lib chuzulib ketgan o'ltan yoki suv osti tog' tizmalaridir. Okean ichki tomonidan qaragan yon bag'ri chuqur okean qari tog' burma oli mintaqalar tarzidagi orollar joyining bilan chuqqilari suvga ko'tarilgan orollarini tashkil etadi. Aslida okean qari geosinklinal bukilma deb qaralsa, orolar yoyi sobiq geosinklinal bukilma o'rnida burmalanish va umumiy ko'tarilma natijada paydo bo'lgan geoantiklinal ko'tarilmalaridir. Orolar yoyi struktura jihatidan bazalt po'stli mirzalar hisoblanadiki. Mirzalar tanasiga vulkanik va chukindi qatlamlar kiritilgan. Yotiq orollar yoyi esa granit yer po'stli ekanligi aniqlangan. Orollar yoyi uchun markaziy bug'izli (kapaler) anqdiletli yoki minaretli rava otilib chiqadigan hozirgi zamon vulkanizmi harakterlidir. Harakat qiluvchi orollar jo'nalishida muayyan qonuniyat amal qiladi. Gap shundaki orollari yoyi ko'ndalang va chuquqlig yoriqlar bilan kesilgan. Bu chuquqliklar kesimiga nuqtalaridan yerik harakatdagi vulkanlar joylashgan.

Bir qator holatlarda orollar yoyi ikki tomonlama tuzimlar sifatida namoyon bo'ladi. Ichki va tashqi yoylar sifatidagi orollarni bir – biridan chuqur botiqlar ajrati turadi. Masalan Kurel orollar yoyining ichki ko'tarilmalari quril orollari va uning suv ostidagi qismining tashkil etsa. Tashqi qismi kamchatka yarim orolining suv ostidagi sayozliklariga to'g'ri kelaidki bu narsa faqat kichik kurellarda namoyon bo'ladi. Yosh orollar yoyi sifatida kichikantik orollar yoyini misol qilish muminki ular ham Kurel yoyi singari ikkiga bo'linadi. Ichki

yoyiga puyerto – retka qari bilan ajralgan shimoldagi Atlantikaning eng chuqur bo'lgan qismi va Kubo orolining tashkil etgan tashqi yoy orollar yoyiga yuqori miqdordagi issiqlik oqimi (5-8 m kkal) sm 2 (sekund) unchalik katta bo'lmagan tortishish kuchi harakterli bo'ladi. Ko'pchilik orollar yoyi baland zilzila zonasiga joylashgan vertical harakatlarni bir – biridan farq qiluvchi yer po'stini vertical harakatlari harakterli bo'lishi bilan harakterlanadi.

Okeanlarda yer po'sti ichkarisi tomon borgani sari orollar yoyi bilan okean qarining bir – biri bilan almanishinuvda o'z ifodasini topadi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida o'tuvchi viloyatlar bir – biridan farq qiladi. Dengiz botiqlari okean qari orollar yoyining murakkabligi hisobga olganda chuqur okean bukmalari va orollar yoyining 5 ta bir – biridan keskin farq qiluvchi tiplarini ajratish mumkinki, ularni O.K.Iyontev va G.K.Vechagovlar 4 ta tipga bo'lishini ma'lum qilishgan.

1. Vetyaz tipi 2. Mareyana tipi 3. Uril tipi 4. Yapon tipi

Ularning biribiriga o'tuvchi zonalari ham bir – biridan farq qiladi. O'rta yer dengizi o'tuvchi o'zining juda murakkabligi bilan izohlanadiki, dengiz palahsali tog' va uncha katta bo'lmagan yer po'sti bilan harakterlanadi. Har qalay o'rta yer dengizi tipi kengligi yo'nalishidagi burmali palahsali relyefi bilan ta'riflanadi. Okeandagi megarelyefi taraaxraton bilan harakterlansa o'rta yer okean tumanlari tizimalari har bir okean tagi hususiyatiga bog'liq ravishda o'ziga xos makllar borligida ta'riflanadi. Qayd etish o'rinligi, Okean yer po'sti xos bo'lsa. O'rtalik okean tizimalariga reftogen yer po'sti xos bo'ladi. Okean tagiga struktura jihatidan okean platformalari yoki, talasakratonlar mos kelsa, o'rtalik okean tizmalari meridional yoki submeridional yo'nalishdagi eng 2000 minggacha va 6 km gacha nisbiy balandlikda ega bo'lgan murakkab parlangan suv osti tizmalaridir. Tizmaning o'q qismida murakkab parchalangan yon bag'irlari assimetrik tog' tizmalari mavjud bo'ladi. O'rtalik okean tizmalarining qirrasidagi chuqur yoriqsimon zonalari reftlar deyilib ular tarqalgan zona reftlar zonasi deyiladi. Ular yer po'stning eng faol suv osti qar hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ularda burmalanish, zilzila va ko'tarilishi chukish jarayonlari davom etayotgan mintaqada o'rtalik okean tizmalarida geosinklinal mintaqalar singari kuchli tog' ko'tarish davom etmoqda. Yer po'sti melanj ya'ni reft zonalarida yer po'stining qalinligi katta, ulkan tog' burmalarining shakllanishida o'z aksini topadi.

Shimoliy muz okeanida Elsimar yeri orollaridan Lomonosov suv osti tizmasi, alfa platosi, Mendeleev suv osti tizmasi joylashgan. Bu tizmalar oralig'ida yassi yuzasi botiqlar, nisbatan suv osti tizmasi yastonib yotadi. Mendileev tizmasi bilan Alyaska shelfi oralig'ida 909 m chuqurlikdagi Bafort

botiki Yevropa Sibir sektorida Gekkel suv osti tizmasi. Bu tizma bilan Lomonosov suv osti tizmasi oralig'ida Amundesen botig'i joylashgan.

Ma'lumki, Atlantika okeaning bosh o'qini o'rtalik Atlantika tizmasin tashkil etib bu tizma kengligi 2500 km bo'lsa Islandiya orolida 300 kmgacha topadi. O'rtalik Atlantika tizmasining chekkalari yoriqlar bilan parchalangan, harakatdagi vulkanlari borligi bilan ta'riflanadi. O'rtalik Atlantika tizmasining har ikkala yonbag'riga yer po'stining okean tipi xos bo'lsa. Bu tizmada Rekyanes (Islandiya tutash), Turistanda Kunya, Yan M. Mayyon siv osti tog'liklari bor. Atlantika okeani tagida o'rtalik okean tizmasining har ikkala tomoni yer po'stining okeani tipidan tuzilgan. Bu yerda katta – katta okean botiqlarini okean kutarilmalari bir – biridan ajratib turadi. Shimoliy Atlantika botig'ining o'rtasida Bermud balandligi joylashgan. Hind okeani suv osti relyefida bir necha o'rtalik okean tizmalari bor. O'rtacha 250 – 600 belgidagi relf abiseal tepaliklar relyefi va yassi abyssal tekisliklar deb ataladi.

Hind okeani tagi relyefi g'arbiy Hindiya, Arabiston – Hindiston, Markaziy Hind va Avstraliya Antarktika suv osti tizmalari mavjudligidir. Hind okeani tagi relyefi, Atlantika okeani tagi singari bo'ylama va kundalangi tektonik siniqlar bilan parchalangan. Hind okeanining eng yirik orografik elementi Vim sinig'I va Maldiv – Madagaskar suv osti tizmalaridir. Sharqiy Hind okeani suv osti tizmasi bo'lgan Maldiv – Madagaskar palaxsali tog' burmalanish, Qrole va Kergelen platolari joylashgan. Hind okeani tog'i abisial tepaliklari borligida o'ziga xoslik kasb etadi.

Tinch okeani dunyo okeani maydonini yarmini ishg'ol etganligi uchun uning megarelyefi nihoyatda xilma – xildir. Avvalo bu okeanda janubiylikini tinch okeani o'rtalik tizmasi bilan borligini qayd etish mumkin. O'rtalik okean tizmalari bir – biribilan kesishgan chuqur yoriqlar parchalangan. Boshqa okeanlardagi singari bu yerdagi o'rtalik tizmalarning o'q qismi bu tizma gumbaziga rift yoriqlari bo'lib kirgan bo'ylama tektonik siniqlar hosdir. Tektonik siniqlarning ko'pchiligi meridional yo'nalishda. Ayrimlari kenglikka yaxshi yo'nalishda ham bo'lishi mumkin. Sharqiy Tinch okean tizmasining 30 bilan 4 daraja kengliklari oralig'ida janubi –sharqiy G'arbiy Chili tizmasi tarmoqlanadi. Bu tarqmoq rift zonali, kuchli seysmizm va hozirgi vulkanizm bilan ajralib turadi. Tinch okean tizmasi ham riftogen tipli po'stiga ega. Shimoliy Amerika materigiga sharqiy tinch okean tizmasining rift zonasi sifatida yorib kirgan Kaleforniya ko'rfazi riftogen zonaga yaqqol misol bo'la oladi. Tinch okeanda qirrali yassi yuzali tog'lar bo'lgan okean marzalari ham xarakterlidir. Marzalarining bunday yassi yuzali tog'larini gayotlar deyilib, tepasi yorilgan komissimon balandliklar ko'rinishiga ega.

Markus Nekker gayoti bor bo'lgan markasi Gavayi orollaridan g'arbga tomon chuzilgan. Tinch okeanning katta qismini gumbazsimon kutarilma tog'lar band etgan bo'lib, bu tog'larning baland tepelari gayoti va vulkan zanjirlari borligi bilan xarakterlanadi. Ularning ba'zilarida marjon qurilmalari va orollari joylashgan. Odatda Tinch okeanning janubi – sharqidan shimoli g'arbga umumiy yo'nalishli bu suv osti marzalari suv osti botiqlarini bir – biridan ajratib turadi. Shu narsa aniqki, Tinch okean tagi deyarli hamma joyda materiklardan chuqur qarlar bilan ajralgan. Shuning uchun qarlar bilan okean tizmalari oralig'ida suv osti botiqlari va kutarilmalar ko'pchilik. Abessal tekisliklar bo'lgan bu megarelyef shakllari ba'zan chuqur tektonik siniqlar bilan murakkablashgan deyarli kenglik yo'nalishida tektonik siniqlar g'arbdan sharqqa tomon umumiy yo'nalishdagi palaxsali tog'lar – gorst va graben strukturali relyefiga ega. Okean tagi relyefini o'rganish yer tarixining muayyan bosqichlardagi jarayonlarini bilishga va okeanning meniral va geothermal resurslaridan foydalanishda katta ahamiyat kasb etadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Orollar yoyi deb nimaga aytiladi. Orollar yoyini morfologiyasini aniq misollarda ta'riflang.
2. Chekka dengiz botiqlari va ularni morfologik tuzilishidagi xususiyatlar nimada ifodalanadi?
3. Okeanda materikka o'tuvchi zonalarning genetic tiplarini sanab bering.
4. O'rtalik okean tizmalarining morfologiyasi nimada ifodalanadi. O'rtalik okean tizmalarining planetar tizimi nima?
5. Shimoliy muz okean tagining relyefini ta'riflang.
6. O'rtalik Atlantika tizmasining xususiyatlari nimada namoyon bo'ladi.
7. Hind okean tagi relyefi qanday xususiyatlari bilan boshqalardan farq qiladi.
8. Tinch okean o'rtalik okean tizmalari va botiqlarining morfologik xususiyatlarini ta'riflang.

-ma'ruza. KARST VA KARSTLI RELYEF SHAKLLARI

REJA:

1. Karst tushunchasi va karst bilan bog'liq tayanch tushunchalar mazmuni.
2. Karst hosil bo'lishidagi geologik va geografik sharoitlar
3. Karst relyefining shakllari, karstni tasniflash
4. Turkiston hududida karstlarni o'rganishda mahalliy olimlarning ishlari.

Tog' jinslarining relyef hosil qiluvchilik roli hech qayerda va hech qachon karstli viloyatlardagidek yorqin namoyon bo'lmaydi, lantshafning o'ziga hosligi bu yerda karst bilan relyef va gedrografik hususiyatlar belgilab beradi.

Ohaktosh, dololsit, gips, angidrit, galit, karnallit, mirabalit kabi kimyoviy chukindi jinslarning suvda eruvchanligi bilan bog'liq relyef gedrografik shahobchalar shakllanishining o'ziga hosligi bo'lgan xodisa va jarayonlar yig'indisi karst deb yuritiladi. Geografik uchun karst, bu nafaqat relyefning karst genetic tipi, balki, o'ziga xos karst lanshafti bo'lib lanshaftda yer yuzasi va yer ostida boshqalardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo'aldi.

O'simlik, hayvonot olami, tuproq qoplami o'zaro uyg'unligini boshqacha tarzda namoyon yonuvchi gidrografik shoxobchalar yetakchi omil bo'lgan geografiklandshaftning alohida turidir. Demak, geomorfologiyada karst jarayoni tog' jinslari erishi, kuchirilishi, qayta teaqsimlanishi mineral paydo bo'lishiga sharoit yaratdi. Karst dekutatsiyadir. Karst dekutatsiyasida tog' jinslarining eruvchanlik xususiyatlari yer yuzasiga chiqib qalib, qisman tuproq hosil bo'lish jarayoni orqali, qisman relyefd orqali namoyon bo'ladigan o'ziga xos tabiiy muhit vujudga keladi. Masalan, karbonotli jinslarda – oxaktosh, deloitlarda kalsiysevar o'simlik turlari shakllanganligi uchun, qurg'oqchil ekalogik muhitga moslashgan flora guruhi o'sadigan "yalong'och" karst relyefi alohida ajralib turishi mumkin. "Yalang'och" karst o'rta dengiz o'lkalarida yaxshi o'rganilganligi tufayli boshqa "karstimiz" hududlardan o'ziga xos mikro iqlim hususiyatli lanshaftga ega "o'rta dengiz yalong'och", "karstli" lanshaftlar deb yuritiladi. Yer haqidagi fanlarda muayyan jarayon va xodisalar yig'indisini anglatuvchi karst so'zi aslida atoqli otdir. Bu atama Yugoslaviyaning Triest shahridan shimoli – sharqda joylashgan Karst platosining nomidan olingan. Qo'shimcha tarzida takidlash lozimki, dastavval yaxshi o'rganilgan, relyefning muayyan shaklini bildiruvchi "polya", "uvala", "ponora" kabi bir qancha atamalar ham "karst" ilmiy iborasi bilan bir qatorda Yugoslaviya xalqalritilarida kirib kelgan. Bu so'zlar yer yuzasi relyefining turli

katta – kichiklikdagi uyiqliq, botiqliq, o'tkir qirralari yuzalarini ifodalash uchun ishlatiladi.

Karst jarayoni bo'lishining eng muhim sharti karstga chalinuvchi – ya'ni suvda kimyoviy eruvchan jinslar va erituvchi yer usti yoki yer osti suvning bo'lishidir.

Karst jarayoni geologiya- geografiyaning mineralogiya petrologiya, hidrogeologiya, paleoklimshunoslik kabi kupdan –kup sohalari uchun qiziqarli bo'lib qolmasdan, turizm, arxeologiya, biologiya va boshqalar uchun ham ahamiyatlidir. Har bir fan o'z fani nuqtai nazaridan karst jarayonini o'rganadi. Fanlar karstshunoslik ilmi bir butun ilm sohasi sifatida ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan. Karstlanuvchi jinslar – ohaktoshlar eng ko'p tarqalgan jinslar xisoblanadi. Shuning uchun ham karst jarayonlarining atoqli tadqiqotchisi fransuz olimi E. Martel karsti "ohaktoshlardagi xodisalar" deb atagani bejis emas. Kimyoviy toza sovuq suvda Kalsiy karbonotning o'n mingdan bir qismi erishi mumkinligi tadqiqotlar natijasidan aniqlangan. Ohakli jinslarning suvda erish tezligi suv haroratiga bog'liqlik bo'ladi. Suvning tarkibida karbonot angidrat gazining bo'lishi ham erishni tezlashtiradi. Bu gazning tabiiy suvda bo'lishining asosiy manbalari – atmosfera tarkibidagi gaz, biokimyoviy jarayonlar, organik qoldiqlarning parchalanishi va yerostidann chiqayotgan yuvenil suvlaridir. Ohakli jinslar erish tezligiga tog' jinslarining qattiqligi, ularda yoriqlik va daralarning bo'lish – bo'lmasligi ham ta'sir ko'rsatadi. Karstga chalinayotgan jinslar tarkibining ham karstlanishga katta tasir etishini qayd etish lozim. Karstlanish jarayoniga karstlanayotgan jinslarning qalinligi, ulardagi yoriqlar, erishga uchrayotgan jinslarning yer osti suvlariga borib tegishi ham ahamiyatlidir. Karstlanishga relyef avvalo yuzaning qanday nishablikda joylashganligi ham ta'sir ko'rsatadi. Qalin va toza qatlamlarda ham karst tez borishi aniq. Ohaktosh tarkibi chig'anoqlar bo'lsa, sekin, mayday zarrali bo'lsa tez, shuningdek, iqlim, birinchi navbatda havo harorati karstlanishni tezlashtiradi.

Shunday qilib, karstlanishning geologiya – geografiya asosan to'rtta deb xisoblash mumkin:

1. Relyef

2. Jinsning tozaligi va qalinligi

3. Jinslar strukturasi va D. Teksturasi ya'ni zarralar joylanishi va tarkibi

4. Iqlim.

Karst jarayonlari uchun hidrogeologik sharoit ya'ni yer osti suvlarining joylanishi va harakati ham eng muhimdir. Hidrogeologik jihatdan odatda uch qavatga bo'ladilarki, bular hidrogeologek jihatdan bir – biridan farqlanadi.

1. Aeratsiya zonasi yoki vertical kirulyatsiya zonasida yer usti suvlarining yer ostiga kirib suvning erkin grafitatsiya ya'ni o'z og'irligi buyicha harakati ustun bo'ladi.

2. Suvning davriy tuyinib turish zonasida yuqoridan kelayotgan suvga bog'liq ravishda asosan gorizontalga yaqin suv harakat qiladi. Karstlanish eng faol kechayotgan bu zonada suvning eng past yoki yong yuqori satxlari suv yuzasi oynasi tebranib turadi.

3. Doimiy to'liq suvga tuyingan zona. Bu zonaning eng past suv o'tkazmaydigan gorizontda bo'lsa, eng yuqorisi yer osti suvining eng kam yuzasiga to'g'ri keladi. Karstlanuvchi massiv, daryo yuzasi, ko'l yoki pastlanma harakatiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi.

Karstlanuvchi massivning bushalish nuqtalari bo'lgan buloqlar suv miqdori ham davriy ravishda tebranish turadi.

Karst jarayoni avvalo relyef tipining hosil qilishi ta'kidlanadi. Karstlanuvchi jinslarning yer yuziga chiqishi bilan bog'liq shakllar "ochiq" karst shakllarini tashkil etadi. Relyefning yuzasi qalin yotqiziqlar bilan qoplangan tekisliklarda yopiq karst hosil bo'lishi mumkin.

Ochiq karst relyefining eng ko'p tarqalgan turi – karr yoki shratt deb ataladi. Mutadil iqlim sharoitida qirralar 1-2 sm gacha bo'lishi mumkin.

Panolar – yer usti suvlarini yerning chuqur qismlariga oqib ketadigan quvu singari tor quyuqlar. Ponorlar asta – sekin chuqurlashib karst quduqlariga va karst uyuqlari – voronkalariga aylanadi. Deometri 3-5 m dan 30 – 100 m gacha bo'lgan tagida suvni olib ketadigan teshiklari bo'lgan tagiga tomon chuqurlashib boruvchi yer usti uyuqlar karst vertikalari deb yuritiladi. Janubiy O'zbekiston tog'laridagi Mingchuqur, Choxak, Xhoqmozor deb ataluvchi karstli massivlar yura va bur davrlarining oxaktosh va gipsli yotqiziqlaridagi yer usti karst relyefi shakllaridir. Yer osti kavonlari bir – biri bilan tutashib g'or va vertikal yoriqlar tizimidan iborat vertikal shaxtalar hosil qilishi mumkin. Zarafshon tizmasining Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarini bir – biridan ajratib turuvchi Qirqtog' platosida 1070 m chuqurlikdagi Kiyev (Qilsk) g'ori mashxurdir. Yer osti suvining ustki oynali ustidagi qatlamlarni emirib, uning tomi qulab tushganidan devorlari tik chuqur, ammo katta bo'lmagan upirilma karst ko'llari hosil bo'ladi. Turkmaniston Kuxittang daryosi va Dehqonobod rayonida bir necha upirilma karst kullari o'rganilgan. Karst jarayonida yoriqlar kengayishidan erigan mahsulotlar eritma sifatida yerning chuqur jismiga olib ketiladi, natijada eramizdan farq qiluvchi berk chuqurlik hosil bo'ladi.

Shu sababli, karstli relyefining "ko'r" vodiylar deb ataluvchi g'aroyib turlari ham uchrashi mumkin. Bir necha voronka va botiqlar bir – biri bilan

qushilib ketishidan eni va buyiga bir necha yuz metr, chuqurli bir necha o'n metr yirik botiqlar – qozonoy vujudga kelishi mumkin. Qirq tog' platosidagi botiq – hudud Paxtakor o'yingohini eslatishi haqida ko'pgina karstshunoslar, hususan, moskvalik prof. N.A.Gvoadetskiy, O'zbekistonning atoqli karstshunosi, SamDuning marxum prof. M.A.Abdujabborovlar yozganlar. Bunday relyef shakllarini Balkan yarim orolida Polya deyiladi.

Kupchilik kishilar karstshunosliklarni, g'orshunos yoki speliolog deb atashadi. Buning asosi shundaki, g'orlar karst relyefining eng o'rganilgan, eng ko'p diqqatga tortuvchi shakllaridir. Gorizontali qiya bir yoki bir necha tashqitomonga chiqish yo'li yer osti bushliqlarini g'orlar deyiladi. G'orlarning eng uzun AQSH dagi Mamait g'ori bo'lib uning o'rgatilgan qismining o'zi 250 km dan oshiq. O'rta Osiyoning eng uzun Qonqurton g'ori 28 km, Qurluq g'orining uzunligi 5 km keladi. Respublikamizning eng uzun g'ori Yakkabog' daryo xavzasidagi hozirda Xisor quriqxonasi tarkibiga kiruvchi Amir Temur g'ori. Hozirda kupchilik biladigan bu g'orning 815 m uzunlikka ega ekanligini hali 1964 yildayoq o'lchaganmiz.

Samarqand universiteti O'rta Osiyo hududini karst jihatdan o'rganishida katta ish qilgan dargoh Ya.A.Leven, M.A.Abdujabborov, I.Umarov va boshqa olimlar tashabbusi bilan bu darsdan 10 dan oshiq karstshunoslar etishib chiqqan. Milliy kadrlar tayyorlarda o'lgan xissa qo'shgan G.O.Mavlonov dan alloma qo'llab – quvvatlash bilan karstshunoslikning yirik vakili M. Mamatqulov samarali faoliyati ham bir jihatdan SamDu bilan bog'liq.

Karstli o'lkalar relyefi nafaqat yer yuzasi relyefini o'rganish bilan, balki o'zining ilmiy va amaliy ahamiyati yer jihatidagi ilmlar sohasidagi hali echilmagan muammolari borligi bilan kelajak mutaxassislar diqqatini tartadi deb o'ylaymiz.

**-ma'ruza. GLYATSIAL JARAYONLAR BILAN BOG'LIQ
RELYEF SHAKLLARI VA DOIMO MUZLOQ YERLAR RELYEFI**

REJA:

1. Glyatsial, nozal, xionosfera, qor chizig'i tushunchalari. Tog' va materik (qoplama) muzliklarning relyef hosil qilishdagi ahamiyati
2. Doimiy muzloq yerlar tushunchasi, hosil bo'lishining shart-sharoitlari, geografiyasi.
3. Doimiy muzloq yerlardagi soliflyukatsiya va boshqa tip va jarayonlari
4. Doimiy muzloq yerlarda xo'jalik yuritish masalalari.

Glyatsial relyef hosil bo'lish jarayonlari muzliklar faoliyati bilan bog'liqdir. Glyatsial jarayonlar rivojlanishining birinchi sharti yer po'stining muayyan yuzasida uzoq vaqt mobaynida muzlanish mavjud bo'lishidir. Faqat, xionosfera joylashgan hududlardagi muzlanish sodir bo'la oladi. Xionosfera deganda atmosferaning yog'inlar qattiq holatda tushadigan, yog'inning miqdori uning sarfidan ko'p bo'ladigan quyi qismi tushuniladi (lotincha muz qobig'i demakdir). Xionosferaning patki quruqlik bilan kesmagan chegarasi qor chizig'i deyiladi, u egi-bugri, ya'ni past-baland bo'lgan chiziqdır. Qutbiy o'lkalarda qor chizig'i dengiz sathidan o'tsa, quyi kengliklarda tog'larning baland yonbag'irlaridan qor kirimi bilan chiqimi bir-biriga teng bo'ladigan balandliklardan o'tadi. Qor chizig'idan yuqorida qorning to'planishi, ya'ni akumulatsiyasi ro'y beradi. amalda qor chizig'i yozda qorning erigan eng yuqori chegarasi hisoblanadi. Xionosferaning yuqori chegarasi tog'larning qor va muzlik bo'lishi mumkin bo'lgan 8-9 km balandliklaridan o'tadi. Tabiiy muzning qorning muzga aylanmasidan hosil bo'lgan qor muzi va suvning muzlanishidan hosil bo'lgan suv muzini bir-biridan farq qiladilar. Qorning erib, suvga to'yinib, bir necha bor takrorlanib turishidan farq hosil bo'ladi. Firinning xususiyatlari ya'ni zichligi, qattiqligi, hajmi o'zgarib gletcher muziga ya'ni haqiqiy muzga aylanadi.

Geomorfolog olim D.G.Panos muzliklarning 3 ta tipi bor deb hisoblaydi.

1. Quruqlik yoki materik muzligi
2. Yer osti muzligi
3. Dengiz muzligi

Muzliklarning hosil bo'lishi sharoiti va hozirgi relyefini o'zgartirishi jihatidan bizningcha ularni 2 ga ya'ni muzliklariga va qoplama yoki materik muzliklariga bo'lgan ma'qulroq. Ularning birinchisi yuqoriga ko'tarilgan sari

havo haroratining pasayib borishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi qutbiy kengliklarda havo haroratining doimiy pastligi bilan bog'liqdir.

Tog' muzliklari va materik muzliklari birgalikda 16 mln.kv.km.maydonni egallab, bu yer quruqligining 11%iga teng demakdir. Suv muzlaganda o'z hajmini kengaytirganligidan ular boshqa tashqi jarayonlar singari relyef hosil qilishda faol ishtirok etadi. Birgina O'rta Osiyo tog'larida 17 000 km² dan ortiq maydonda doimiy muzliklar mavjud.

Muzlik harakatlanish shartlaridan biri uning plastikligidir. Bu xususiyat muzlikning qalinligi va yonbag'ir nishabligiga bog'liq ravishda tog' muzliklarining sutkasiga 0,03-0,35 m dan 1-4 m gacha tezlik bilan harakat qila oladi.

2. Muzlanish akkumulyatsiyasi ustun bo'lgan zona shimoli – g'arbidan janubi – sharqqa tomonga flyuviglyasial qirlar yo'nalishida o'z ifodasini topadi. Muzlikning arishidan hosil bo'lgan suvlar muzdik tagidan akkumulyatsiya qilingan yotqiziqlarni tuplab qirlar va tepalar hosil qilishda o'z ifodasini topadi. Masalan, Moskva muzligining oxirgi – Morena yotqiziqlari sifatida kam relyefi shakllangan. Kam konussimon gumbazga o'xshash dumaloq tepaliklar bo'lib, yonbag'irlari ba'zan ancha tik tepaliklar marjonidir. Boltiq dengizi soxillariga yaqin huquqlar drumlanlar uchraydi. Drumliklar aslida 1-15 km masofaga chuzilgan, eni 100- 200 m dan 2-3 km gacha bo'lgan qirlardir. Odatda qirlarning nisbiy baladnligi 5 m dan 25 m gacha etadi. Ularning uzun o'qi muzlik harakat yo'nalishi ya'ni janubi – sharqqa mos keladi. Akkumulyatsiya zonasida unlab xatto yuzlab metr kattalikdagi xarsang qoyalar – ottojenetsiyalar – silkitib otilgan qoyalar uchraydi. Bu qoyalar ba'zan valunalar deb ham yuritiladi.

3. Muzoldi – pereglyatsial zona muzlik chegarasidan quyida – tashqarida joylashgan qism bo'lib, ularning muzlanishga bog'liqligi oqim va ko'l yotqiziqlari – qumloq, toshloq – zandra dalalari mavjudligida o'z ifodasini topadi.

Bu relyef shakllari joylanishi – muzlikdan erib chiqqan suv oqimlari yo'nalishiga mos keladi.

Quruqlikning 25 foiz maydoni doimiy muzloq yerlar bilan band. Geokriozana deb ataluvchi bunday hududlar shimoliy qutb doirasidan ichkarida, qutb doirasidan ancha janubga kontinental iqlimli hududlarda tarqalgan. Shimoldan janubga tomon doimiy muzloq yerlar yaxlit – uzluksiz kichik zonaga (7,5 mln. kv. km) va orollar shaklidagi alohida – alohida kichik zonalar 7,2 mln ga defrli teng nisbatda bo'linadi. Sibirning chekka shimolida 600 m shimoliy Amerika shimolida 400 m qalinlikkacha ustki qatlam muzloq bo'lishida o'z ahamiyatini namoyon etadi. Ko'p yillik doimiy muzloq qatlar

ustida qalinligi bir metrdan 4 metrgacha bo'lgan faoliyatli o'zgaruvchan qatlam hosil bo'lgan. Yozda eriydigan, qishda yana muzlab qoladigan bu ustki qatlamning qalinligi eni kam bo'lganda bir necha o'n santimetr, eng chuqur bo'lganda bir necha metrga etishi mumkin, faoliyatli ustki qoplamning qalinligi joylashgan o'ring geografik kengligiga, relyef xususiyatlariga, yon bag'irning ekspozitsiyasiga, o'simlik qoplamining xarakteriga, ustki qoplamning issiqlik o'tkazuvchanlik va issiqlik sig'imiga muzlay olish xususiyatiga, yer yuzasining suv bilan qoplanganligi kabi qator alomatlariga bog'liq bo'ladi. Harakatdagi ustki qatlam doimiy muzloq yerlarda ruy beradigan yillik barcha o'zgarishlarni o'zida mujassam etadigan qoplam bo'lganligidan, xujalikda ko'p yillik muzloq yerlardsan foydalanishda uning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Doimiy muzloq o'zining paydo bo'lishi jihatdan ikki tipga – singenetik va epigenetek gruntlarga bo'linadi. Singenetik gruntlar deganda shu muzloq qatlamlar paydo bo'lishi bilan muzlashga chalingan qoplam tushuniladi. Epigenetek grunt esa, avval ustki qatlam paydo bo'lgan, so'ngra muzlanishga uchragan gruntdir. Shuni ham aytish lozim, doimo muzloq yerlar uzluksiz bo'lgan kichik zonada ham ayrim maydonlar tagida muzlamagan qandaydir atrofdagi ko'p yillik muzloq gruntni yorib kirgan muayyan xajmdagi maydon bo'lishi mumkin. Bunday muzlamagan qismlar – toliklar – erimagan gruntlar deb yuritiladi. Ular odatda kattaroq suvlar tagida, masalan, katta daryo uzanlari tagida, ko'llarning tagining ichki qismida, muzloq yerlar tagidan yer betiga oqib chiqayotgan buloqlar atrofida uchraydi. Yer osti suvlarini muzloq grutlarga nisbatan joylashganligi buyicha uch tipga bo'lish mumkin.

I. Muzloq usti yer osti suvlari ya'ni doimiy muzloq grunt ustida, faoliyatli mavsumiy eriydigan ustki qoplamda harakat qiladigan suvlar.

2. Muzloq gruntlar ichidagi, erimagan toliklardagi yer osti suvlari.

3. Muzloq gruntlarda pastki chuqurda joylashgan yer osti suvlari.

Shunday qilib, ko'p yillik muzloq yerlardagi relyefni shakllantiruvchi ya'ni relyef hosil qiluvchi ekzogen jarayonlar, asosan yer osti, qisman yer usti suvlarining mavsumiy harakatai bilan bo'g'liq bo'lishi isbotni talab qilmaydigan xaqiqat. Doimiy muzloq yerlardagi tez- tez uchrab turuvchi relyefning shakli ko'pchilik tepaliklardir. Yer osti suvlarining muzlanishi natijasida ularning hajmi kengayib, balandligi 2 m gacha bo'lgan tepaliklar yer yuzasiga ko'pchib chiqib paydo bo'ladi. Odatda yer yuzasida radiol yoriqlar ko'rinishiga ega bo'lgan ko'pchik tepalar- torfliqatlamlar bor gruntlarda vujudga keladiki, ularni ba'zan torfyaniklar, ya'ni torfli tepaliklar ham deb yuritiladi. Torfli tundralarda uchraydigan ko'pchilik tepaliklarini ba'zilarining balandligi 3 metrdan 7 metrgacha etishi mumkin. Dumaloq, tepasida yoriqlar bo'lgan ko'pchik

tepaliklar gruntning ichki qismida torfni erigan suvni o'ziga shimib olishi va muzlaganda xamir singari xajmini kengaytirishdan paydo bo'ladi.

Ko'p yillik muzloq yerlarda uchraydigan yirikroq relyef shakllariga gidrolikolitlarni kiritish mumkin. Balandligi 70 m gacha, diametric 200 m gacha kattalikdagi bu relyef shakllari ham tarfli tundralarda uchrashi mumkin. Muzloq grantlar orasidagi yoki muzloq grunt osti suvlarning kuchayotgan zonaga olib kelib, gidrolakkolit yoriqlarida yozda erigan paytda suv oqib chiqib ketishidan yadrosi muzdan iborat gidrolakodit paydo bo'ladi. Yozda erigan grunt, orasidan yer ustiga yer osti suvlari chiqib, qishda muzlanishdan muzlanish – yax tepalari – naledalar paydo bo'ladi. Yilning sovuq faslida vujudga keluvchi tepaliklar ikkinchi nam bilan tarinlar ham deb ataladi. Yaxli tepalik – naledlar atrofiga o'ziga xos sovuq mikroiklim, sovuq nurash jarayonini kuchaytirib, daryo yonbag'irlarida Solyuflyokatsiya vujudga keltiradi. Solyuflyokatsiya, deb sovuq nurash maxsulotlari yanada muzlab, o'z og'irligi bilan yonbag'ir buylab oqib tushishi jarayoniga aytiladi.

Namlik bilan gruntning har xil darajada tuyinish va ko'p martalab muzlash va erishning takrorolanish natijasida maydaroq zarrali gruntlarda qabariq tepaliklar – ko'p burchak ko'rishida relyef shakllari ham uchraydi. Yer ustida tosh xalqalar, uyilgan toshloq botiqlar – muzlagan grantning har tarafga sochilib ketishidan hosil bo'ladi. Bunday tundra Xoldor tundra deb yuritiladi.

Doimiy muzloq yerlarda yer ostidan muz qaldiqlarining yer ustiga yorib chiqishi, nuroq, chaqiq jinslar orasiga kirgan havo tarkibidagi namlik muzga aylanib, qaytadan atrofga sochilishi bilan turli – tuman relyef shakli uchraydiki, ular faqat doimiy muzloq sharoit uchungina xosdir. Termo – karst – yozda mulagan yer erishidan grantning chukishi, termoeroziya – yer usti suvlarning gruntgaerituvchilik ta'siridan emirilish va boshqalar juda keng tarqalgan doimiyerlar relyef hosil qiluvchi jarayonlardir. Juda katta maydonni egallagan doimiy muzloq yerlarda xujalik yuritishga muzloqlar muayyan ta'sir ko'rsatadi. Yakutatsiya Seka Respublikasi poytaxtida – Yakutskida ko'p yillik muzloq yerlarni o'rganuvchi ilmiy dargoh uzoq yillardan tadqiqot olib bormoqda. Doimiy muzloq yerlardan xo'jalik yuritish uchun qo'shimcha tadbirlarni olib borish asoslarini ishlab chiqish bu muassasa zimmasiga yuklatiladi.

Zero, doimiy muzloq yerlarda gidrotexnik inshootlar, tog' – kon sanoati, transport komunikatsiyalari, qishloq xo'jaligini olib boorish mumkin, ammo ular uchun qo'shimcha mablag'lar, sarf etish, tabiatning doimiy muzloq yerlaridagi jarayonlar bilan xisoblashishga insonni majbur etadi. Tabiatdan foydalanilganda tabiat ham o'z xisob – kitobini inson oldiga qo'yish doimiy muzloq yerdan foydalanishda burtiq namoyon bo'ladi.

-ma'ruza. ARID O'LKALAR RELYEFI

REJA:

1. Arid tushunchasi. Shimolning relyef hosil qilishdagi ishtiroki. Tropik va mutadil mintaqa cho'l hamda chala chul sharoitidagi relyef hosil bo'lish xususiyatlari
2. Eol – akkumulyativ relyef shakllari
3. Chullarning arid – dekutatsiya relyef shakllari
4. Chullanish – umumplanetar jarayon. Orol dengizi kurish bilan relyef shakllari.

Arid sharoiti deganda havo xaroratining kecha – kunduzlik va yillik amplitudasi keskin tafavut namoyon bo'ladigan, nisbiy hamda mutloq namlik kam, yog'in – sochin kam (150 200 m) chul, chala chul, subtropik, tropic kengliklardagi kengliklar tushuniladi. Arid so'zi lotincha aridus – qurg'oqchil so'zidan olingan bo'lib, qurg'oqchil keskin kontenental iqlim sharoiti bosh omil sifatida ta'sir ko'rsatuvchi barcha tabiiy geografik jarayonlar va xodisalar yig'indisini o'zida mujassamlaydi. Planetamizda arid sharoitli hududlar ikkala tropikka yondosh kengliklarda joylashgan. Asosan chul komplekslari shakllanganligi bilan ta'riflandi arid o'lkalar Kaliforniya yarim oroli, Markaziy Meksikka, Saxrosi Kabir, Arabiston yarim oroli va ungfa tutash hudulardagi chul komplekslarini o'z doirasiga oladi. Janubiy yarim sharda tropic chizig'i atrofidagi Atekana, Namib, Kalakara, Avstraliyaning katta qum chuli, Katta Vektoriya chuli va boshqalarning arid sharoitli chul komplekslari deyish mumkin. Har biri bir – biri bilan tutashib ketgan Osiyoning mutadil, subtropik mintaqalaridagi Betbakdala, Ustryurt, Muyinqum, Qizilqum, Qoraqum, Dashti Kevir, Dashti Lut, Dashti Margo, Tar kabi katta – kichik chullari ham arid sharoiti bilan ta'riflanadi. Takla – Makon, Gobi, Alshan kabi chullar ham, garchi ularning ayrim qismlari dengiz sathidan 1000 m dan balandda bo'lsada, tipik arid sharoitli hududlardir. Shunday qilib, chul ekosestimalari shaklangan arid ya'ni qurg'oqchil hudular planetamiz quruqlik qismini 36 foizini ya'ni 46 mln. kv. km dan ortiqroq maydonini egallab, bu zonada planeta axolisining 348 mln ya'ni 23 foizi yashaydi. Yetakchi omil iqlim bilan bog'liq arid o'lkalarida relyef hosil qiluvchi jarayon va omillar nihoyatda o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. Shamolning faoliyati bilan barcha jarayon va relyef shakllari eol jarayon va shakllar deb yuritiladi. Eol jarayonlarning ruy berishi uchun zarur bo'lgan tabiiy geografik sharoit ya'ni yog'ining kamligi, havoning quruqligi, havo haroratining yuqori va o'zgarib turishi, tez- tez bo'lib turadigan kuchli

shamolar, o'simlik qoplaminig siyrak bo'lishi, fizik nurashning tezkorligidan g'ovak chukindi tog' jinslari- qum, shag'al, alevrit, lyoss, silar bilan yer yuzasida qoplam hosil qilishi kabi barchasi arid o'lkalarda yetarlicha mavjud. Bunda shamol faoliyatining kuchli bo'lishi uchun yer ustida g'ovak jinslar qoplami qum va chang zarralari etarli. Shuni aytish kerakki eol jarayonlar qurg'oqchil iqlim zonalarida kuchli bo'lishi, demak ularning zonallik xarakterini ta'riflaydi. Ayni vaqtda eol jarayon geologik sharoitlar etarli bo'lganda, azonal xarakter ham kasb etishi mumkin. Dengiz sohillaridagi eol jarayonlar barcha iqlimli qirg'oqlarda ruy berishi mumkin. Baribir eol jarayonlar asosan arid o'lkalarda yorqin va etakchi gemorfologik jarayon bo'lib xizmat qiladi.

Eol jarayonlarning deflyatsiya – korraziya, kuchirish va akumulatsiya turlarini bir – biridan farq qilishi lozim.

Deflyatsiya yoki shamol eroziyasi tog' jinslarni emirib, emirilgan xosilalarni olib ketishi. Yuzalarni emirilgan bo'laklarning qoyalarga borib urilishi korraziya (lotincha silliqlash, uyish, tekislash) deb ataladi. Deflyatsiya va korraziya bir-biri bilan hamkorlikda ro'y beradi. Shamol emirgan zararlar qattiq joylarga urilib, qoyalarni yuzalarini tekislaydi, natijada qoyalarda turli kovaklar, uyiqlar paydo bo'ladi. Emirilishga bardoshli qismi turli shakldagi g'oyalar sifatida "toshquziqorinlar"ni, "ustunlar"ni hosil qiladi. Mang'ishlarni yarim orolida, Jung'oriya tog'lkarida, Yakkabog' tog'lardagi turli xil qiyofali qoyalart shamolning deflyatsiya – korraziya shakllaridir. Shamol yer yuzasiga yaqin joylahsgan bushoq qatlamlarni uchirib olib ketib, uning o'rnida xovuzsimon botiqlar hosil qiladi. Bunday botiqlar shamol qozoni deyiladi. Ko'pincha yoriqlarni kengaytirishdan hosil bo'lgan bunday berk botiqlar juda o'lkan o'lchamli bo'lishi mumkin. O'rta Osiyo chillaridagi mashxur qorinyoriq botiq, Mingbuloq, Qoraxotin, Sariqamish, Mulai, Oyog'itma va boshqalarni paydo bo'linishi ba'zan tadqiqotchilar eol jarayonlar bilan bog'laydilar. Ammo ko'pchilik olimlar bunday botiqlar tektonik karst- eol kabi ko'p sababli kelib chiqishiga ega deb hisoblaydilar.

Deflyatsiya jarayoni yer osti sho'r suvlarning kapilyar natijalar orqali yer ustiga ko'tarilishi uchun zamin yaratadi, chunki bu ustun ustki himoya qoplami olib ketilib qattiq gilli jinslar ochilib qoladi, natijada ochilib qolgan botiqlarda shurxoklar paydo bo'ladi. Haydalgan yerlardagi tuproq ustki unumdor qatlaminig emirilib ketishi ham deflyatsiya jarayoning natijasidir.

Qalin qum bilan qoplangan yuzalarda tezligini va yo'nalishini o'zgartirib turuvchi kuchli shamol sharoitida bir – biridan balandlar bilan ajralgan shamol botiqlari – uyasimon qumli yuzani hosil qiladi. Agar doimiy yo'nalishli kuchli shamol bo'lganda yarim oy shakliga o'xshash botiqli relyef

hosil bo'ladi. Arabiston yarim orolida chuqurligi 70 m gacha bo'lgan eol qozonli yarim oysimon mahalliy ibora – fuldja deyiladi.

Eol – akumliyatsiya relyefi shimolning qumli qoplamning kuchiruvchilik faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Shamol bilan qumli yuzaning o'zaro ta'siridan yotqiziqlarning shamol qum oqimi (vetropeschanie potok) hosil bo'ladi. Shamol oqimida – shamol sig'imi, shamol kuchi, shamol qum tuyinishi tushunchalari qo'llaniladi. Muayyan kuchga ega shamolning muayyan miqdordagi qumni kuchira olishi sig'im deyiladi. Kuchirilayotgan qumning miqdori shamol qum oqimining quvvati deyiladi. Oqimning tuyinishi deyilganda oqim quvvatining sig'imiga bo'lgan nisbatining o'ytilishi. Chang (allevrit) zarralari bilan havoning tuyinishidan qum chang buronlari ro'y beradi. Eol akkumulyatsiya natijasida yer yuzasida xilma – xil relyef shakllari xosil bo'ladi.

Eng oddiy shakl – yarim oyga o'xshash qum tepa, harakatdagi kuchsiz shamolda hosil bo'ladi. Harakatdagi dyunaassemetrik qum tepalari bo'lib, shamol yo'nalishiga teskari yon bag'ri tik qumtepa nisbatan tezligi katta shamolda hosil bo'ladi. Ancha yirik muayyan yo'nalishlari qumtepa kompleksi – juyakli pushtali qumlar – (gryadove pesli) deyiladi. Barxanlar eol akkumulatsiya shakllarning eng xaratchan va yirik shaklidir. Barxanlar planda yarim oy ko'rinishga ega bo'lib, tepalikning qiya tomoni shamol yo'nalish to'g'ri, botiq va tik yonbag'ri ($15 - 18^\circ$) bo'lib, shamol yo'nalishiga teskari bo'ladi. Barxan hosil bo'lishiga eol qum oqimiga to'sqinlik qiluvchi biror bo'ta yoki tosh bo'lagi bo'lsa, bas shu predmet atrofida shamol yo'nalishiga tekari nisbatan tik yon bag'irli qum tepasi shakllanadi. Uncha katta bo'lmagan Barxanlar 3-8 m balandlik va bo'yiga ham shuncha bo'lshi mumkin. Qorqumda balandligi 40, eni 200 – 300 m bo'lgan Barxanlar hosil bo'ladi. Odatda Barxanning ustki qismi, 2-5 sm, chuqurlikdagi to'lqinsimon uyachalar tuzilishida bo'ladi.

Cho'llarda qum tepalari ya'ni bugristie peski nihoyatda keng tarqalgan biror aniq shaklga ega bo'lmagan, shamolga ro'para va shamol yo'nalishiga teskari yonba'girlarda ham aniq farq bo'lmagan qum tepaliklari yarim mustaxkamlangan yoki qaytadan harakatga kelayotgan maydonlarda hosil bo'ladi. Tartibsiz joylashgan bu qum tepalarini balandligi odatda 3-5 m ni tashkil etadi. Aftidan bunday qum tepaliklari ham shamolning yo'nalishi aniq namoyon bo'lmagan sharoitda paydo bo'ladi. Shuningdek jingalak qum tepalari bo'ylama qum tepalari kabi xilma – xil eol akkumulatsiya relyef shakllari arid o'lkalarning qumli hududlarida uchraydi. Arid va semiarid cho'llarda eol jarayonlar qumloq va gilli cho'llarni hosil qiladi. Arid – dekadatsiya jarayonlari qoldiq tog'larni shakillantirgan. Qoyalar yuzasi himoya

po'sti cho'l zagari bilan qoplanadi. Gilli cho'llarda chuqur bo'lmagan taqqirlar uchraydi. Pastka joylarga yog'in suvlarning tuplanishi ular olib kelgan mayin zarralarining qoplam sifatida suv bug'langandan keyin qotib, yorilib – yorib ketgan yuzalar taqirlar deyiladi. Toshloq va shag'al qum yuzali hududlarda fizik nurash ham vaqtincha oqar suvlar eroziyasidan bedlend – nounun yerlardir relyefi shakllanadi. Ko'pincha past tog'lar va adirlarda bedlendlar uchrashi tabiiy hol, chunki eroziya va nurash, gilli va shag'alli suvsiz yuzada shamolga o'z o'rnini geomorfologik jarayon sifatida bushatadi.

Arid sharoitli cho'llarda qoldiq tog'lar, senudatsiya tekisliklari, berk botiqlar relyefning ko'zga tashlanuvchi shakl bo'lsa, qumli cho'llarda harakatlanuvchi qum tepalari va qum tepa marjonlari xukmron relyefi shakllari xisoblanadi. Bunday relyef shakllarning hosil bo'lishining birinchisida denudatsiya nurash yetakchi, ikkinchisida eol – akkumulyatsiya jarayonlari yetakchilik qiladi. Shunday qilib arid o'lkalarida relyef hosil qiluvchi jarayonlar bir xildek tuyulsada, aslida boshqa tabiiy sharoitlardagi xilma – xil geomorfologik jarayonlar ro'y berayotgan ekan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Arid o'lkasi tushunchasining mazmuni. Arid o'lkalarning yer sharida tarqalishi.
2. Eol jarayon nima? Shimolning deflyatsiya, korraziya, kuchirish va akumulatsiya, korraziya, kuchirish va akumulatsiya ishlarining bir – biridan farqi va o'zaro bog'liqligi.
3. "Shamol qozonlari", "Tosh zamburug'lar" va ularning paydo bo'lishini ta'riflang.
4. Yotqiziqlarning shamol – qum oqimi, oqimining sig'imi, quvvati va tuyinishi ham "Chang buronlari" tushunchalarining mazmunini izohlang.
5. Qumli cho'llar akumulatsiya relyefining barxan, qumtepa po'stijuyakli tiplari.
6. Cho'llarning arid – denudatsiya relyefini misollarda ta'riflang.

-ma'ruza. GEOMORFOLOGIK TADQIQOT USLUBLARI

REJA:

1. Geomorfologik tadqiqotlarning turlari va bosqichlari.
2. Geomorfologik kuzatish olib boirishning dala metodlari.
3. Geomorfologik xaritalar.
4. Geomorfologik tadqiqotlarning amalitsiy ahamiyati.

Planetamizni o'rganadigan fanlardan biri bo'lgan geomorfologiya ilmi ham, bevosita dalada olinadigan faktik ma'lumotlarga asoslanib ish ko'radi. Shu taxlit dala materiallari qatori relyefning rivojlanishini bilishga xilma – xil masalalar va metodlarni o'z ichiga oladigan cameral ishlar yetakchi ahamiyatga egadir. Shuningdek, ekspremental geomorfologik tadqiqot metodlari ham qo'llaniladiki, bundfay ekspremental tadqiqotlar dala statsionalarida geomorfologik tabiiy jarayonlarni o'rganish yoki labaratoriyada bunday jarayonlarni modellashtirish maqsadini kuzlaydi. Dala geomorfologik tadqiqotlar odatda geomorfologik xaritalar tuzish ishlari bilan yakunlanadiki, mazkur geomorfologik xaritalar dalada ilmiy xisobot materiallari bilan birgalikda amalgam oshirilgan tadqiqot ishlarning asosiy yakuni sanaladi. O'z oldiga quygan maqsadga ko'ra, tadqiqot metodlari umumiy geomorfologik tadqiqotlarga va hususiy geomorfologik tadqiqotlarga bo'linadi. Umumiy geomorfologik tadqiqotlar kompleks tadqiqotlar sifatida geomorfologik tadqiqotlarning barcha ob'yektlari bo'yicha kompleks ma'lumotnomalar tuzish maqsadida olib boriladi. Relyefning morfologiyasi, morfometriyasi, genezisi, yoshi taraqqiyot bosqichlari va dinamikasini aniqlash masalalri tadqiqotning barcha ob'yektlarini qamrab olsih demakdir.

Odatda bunday umumiy geomorfologik tadqiqotlar umumiy geomorfologik xaritalar tuzish bilan yakunlanadi. Mamlakatimizda xaritalar tuzishga mutasaddi (kartalashtirish bosh boshqarmasi, Geologiya va yer ostini himoyalsh Davlat qo'mitasi) Davlat idoralarida geomorfologik xaritalar tuzish bilan shug'ullanadilar.

Umumiy qabul qilingan andozalarga ko'ra 1. MAYda masshtabli geomorfologik xaritalar - 1.: 1000 000 dan kichik, ya'ni 1 sm da 10 km va undan katta masofani joylashtirish,

2. O'rta masshtabli geomorfologik xaritalar 1:20 000 – 1:100000 va 3. yirik masshtabli geomorfologik xaritalar 1:20 000 dan katta ya'ni xaritadagi 1 sm joyga 200 m dan ham kattaroq masofa joylashtiriladi.

Hususiyl geomorfologik tadqiqotlar xususiyl geomorfologik ob'yektlarni o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Chunonchi xususiyl geomorfologik tadqiqotlarga muayyan hududning eroziya – jar – yoki jarayonlarini o'rganish maqsadida ham o'tkaziladi. Yoki muayyan geomorfologiya ko'rsatgichlarini aniqlash maqsadida ham o'tkaziladi. Relyefning parchalanish darajasi, relyefning parchalanish qalinligi, relyef zaminning chukish darajasi va boshqa masalalarni aniqlash maqsadidagi tadqiqotlar ham hususiyl geomorfologik tadqiqotlar xisoblanadi. Xususiyl geomorfologik tadqiqot aniq na zariyl yoki nazariyl masalalarni yechish uchun o'tkaziladi. Chunonchi Qarshi cho'lini o'zlashtirish uchun umumiy geomorfologik tadqiqotlar bilan birga, relyefning suv va shamol eroziyasiga chalinishi darajasini aniqlash tekshirishlari olib borilgan va geomorfologiya xaritalar tuzilgan.

Boshqa yer haqidagi fanlarda bo'lganidek, geomorfologik tadqiqotlar ham, tayyorgarlik, dala va cameral kabi uch bosqichdan iborat bo'ladi. Tayyorgarlik bosqichida adabiyotlar, ilmiyl – texnik xisobotlar, shu hududga doir geologic va boshqa maxsus kartografik materiallar yaqindan o'rganiladi. Topografik xaritalar, aerofotomateriallar, kosmik fotosuratlar o'rganilib, ular asosida oldindan homaki geomorfologik xaritalar tuziladi. Olingan barcha ma'lumotlar asosida dalada tadqiqot ishlari olib boorish dasturi tuziladi. Qoida talabiga muvofiq tadqiqot dasturida tadqiqotlarni qaysi yo'nalishlar (marshrutlar) buyicha o'tkazish, tog' qozish ishlari olib boorish nuqta va maydonlari (burgquduq, chuqurlik qazish) belgilanadi. Geodizik o'lchash ishlari xomaki rejalashtiriladi. Dala tadqiqot olib borishning barcha ilmiyl ashyoviy tomonlari rejalashtirilgan bo'ladi.

Dala bosqichi ekspeditsiya geomorfologik tadqiqotlarning asosiy tarkibiy qismi xisoblanadi. Asosiy fakt ma'lumotlar dastlabki qayta ishlash, o'rganilayotgan hududlarning geomorfologik tuzilishi haqida birinchi xulosalarni chiqarish, tadqiq etilayotgan hududning dastlabki variant geomorfologik xaritasi tuziladi. Olib borilayotgan tadqiqotlarning maqsadi tuzilayotgan xaritaning masshtabiga bog'liq xolda xarita tuzilishinming ikki marotaba biri qo'llanilishi mumkin. yo'nalishlar buyicha olib borilgan tadqiqotlarni o'z ichiga olgan. Tayanch hudud metodi yoki butun maydonni xaritada tushirish metodi.

Birinchi ya'ni tayanch hududiy metodi qo'llanilganda o'rganilayotgan rayon uchun kichik bo'lgan unchalik katta bo'lmagan maydonlar tanlab olinadi, so'ngra olingan natijalar o'rganilayotgan rayonni boshqa qolgan uchastkalari uchun hududi tashkil bo'lishi kerak, deb xisoblanadi, xaritaga tushuriladi. Bu ekstral polyatsiya metodi deb ataladi. Bunday yirik masshtabli tobografik xaritada aerofototrats kosmik fotosuratlarda keng ko'lamda foydalaniladi.

Qo'llanilayotgan ekspolyatsiya metodining to'g'ri ekanligini nazar qilish maqsadida tayanch hududlarni bir – birga bog'lashadi. Ishchi xarita mashxur guruh turi tortiladi. Hududlar orasidagi tayanch bo'lmagan tadqiqot mashho'rlarda saylanma holatda tadqiqotga tortiladi.

Yirik masshtabli xaritalarda butun maydon bo'ylab tadqiqotlar olib boriladi bu xolda tadqiqot bu qadar masofasining marutlar olib borilib mashrut va ko'zatish shahobchalari yetarlicha bo'ladi. Tayanch maydonlarda ehtiyot qilmaydi. Tabiiyki maydon bo'ylab borishi muddatida tayanch hududlar metodida qaraganda vaqt sarflanadi. Tadqiqotlarga tortilgan kuchlar ham ko'proq bo'lishi talab etiladi. Mana shu narsani aniq aytish taqiqlash zarurki har ikkala holda ham dala ishlari umumiy tashnishuv va moslashuv muvofiqlashuv mashg'ulotlaridan boshlanadi. Bunday muvofiqlashuv dala tadqiqotlarini rekognossirovka deyiladi. Odatda, rekognossirovka marshrutlarning maqsadi olinishi zarur bo'lgan ma'lumotlar asosiy geomorfologik komplekslarni qamrab olsin va rayon uchun xarakterli bo'lgan relyef elementlari va shaxs shakllari, tayanch geologic ochilmalar va geologik ob'yektlar (masalan Kon belgisi, qadimgi konlar) tadqiqotga tortilmasdan qolmasin. Rekognossirovka markrutlari vazifasiga har yil xaritalashtirilayotgan hudud doirasidan tashqariga tutash maydonlarni qarab olishi mumkin, chunki, tayanch geomorfologik jarayon hamma vaqt unga tutash hududda ham davom etadi. Bu narsa avvaldan tuzilgan tadqiqot dasturini rekognossirovka aniqlash va muayyanlashtirish imkonini berishligini ko'rsatadi.

